



MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS

COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE

Issue 6(40)

**Warsaw
2021**



MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS

ISSUE 6(40)

July 2021

Collection of Scientific Works

WARSAW, POLAND
Wydawnictwo Naukowe "iScience"
7-9 July 2021

ISBN 978-83-949403-3-1

MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS: a collection scientific works of the International scientific conference (7-9 July, 2021) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. - 103 p.

Editorial board:

Bakhtiyor Amonov, Doctor of Political Sciences, Associate Professor of Tashkent University of Information Technologies

Baxitjan Uzakbaevich Aytjanov, Doctor of Agricultural Sciences, Senior Scientific Researcher

Bugajewski K. A., doktor nauk medycznych, profesor nadzwyczajny Czarnomorski Państwowy Uniwersytet imienia Piotra Mohyly

Yesbos'i'n Polatovich Sadi'kov, Doctor of Philosophy (PhD) Agriculture, Nukus branch Tashkent state agrarian university

Tahirjon Z. Sultanov, Doctor of Technical Sciences, docent

Shavkat J. Imomov, Doctor of Technical Sciences, professor

Sayipzhan Bakizhanovich Tilabaev, Candidate of Historical Sciences, Associate Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Marina Berdina, PhD

Hurshida Ustadjalilova, PhD

Dilnoza Kamalova, PhD (arch) Associate Professor, Samarkand State Institute of Architecture and Civil Engineering

Juraeva Sarvinoz Boboqulovna, Associate Professor of Philological Science, head of chair of culturology of Khujand State University named after academician B. Gafurov (Tajikistan)

Oleh Vodiany, PhD

Languages of publication: українська, русский, english, polski, беларуская, казакша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference "MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS". Which took place in Warsaw on 7-9 July, 2021.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees.

The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

ISBN 978-83-949403-3-1

© Sp. z o. o. "iScience", 2021

© Authors, 2021

TABLE OF CONTENTS

SECTION: CULTURAL STUDIES

Ergashev Omonjon (Namangan, Uzbekistan) OMMAVIY BAYRAM VA TOMOSHALAR REJISSURASIDA XUJJATLI HAMDA BADIYY MATERIALLAR SINTEZI	6
---	---

SECTION: ECONOMICS

Жўраев Беҳруз Комил ўғли, Тоҳиров Адҳам Зоҳид ўғли, Ҳақбердиев Илҳомжон Рустам ўғли (Карши, Узбекистан) САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ИННОВАЦИЯ ВА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШ	9
--	---

SECTION: HISTORY SCIENCE

Ergashev Ahmad Abdug'afforovich, Toshmurodova Sarvinoz Quvondiq qizi (Denov, Uzbekistan) QO'QON XONLIGINING BOSHQARUV TIZIMI VA HARBIY MANSABLARI	14
Qo'shnazarova Mehribon, Otoboyev Akbar (Urgench, Uzbekistan) PAHLAVON MAHMUDDAN SO'RADIM MADAD	20

SECTION: MEDICAL SCIENCE

Khusanov Erkin Uktamovich, Shopurova Gulibonu Okiljon kizi, Djuraev Doston Rustamovich, Irisov Sanjar Alijon ugli (Samarkand, Uzbekistan) INNOVATIVE AND TRADITIONAL APPROACHES TO LEARNING OF STUDENTS IN THE DEPARTMENT OF ANATOMY AND CLINICAL ANATOMY OF SAMARKAND STATE MEDICAL INSTITUTE	28
Mamatova Nargiza Toirjonovna, Ashurov Abduvaliy Abduhakimovich, Abduhakimov Baxrombek Abduvaliyevich (Samarkand, Uzbekistan) ROLE OF PALLIATIVE CARE FOR PATIENTS WITH SEVERE AND CHRONIC TUBERCULOSIS	30
Qahhorova Zaytuna Abdug'ulom qizi, Ro'ziyev Farhod Shuxrat o'g'li, Navro'zova Zarina Alim qizi, Sultonov Nurillo Muzaffar o'gli (Termiz, O'zbekiston) BUYRAK FUNKSIYASINING BUZILISHI	35
Сидорчук Леонід Ігорович, Міхєєв Андрій Олександрович, Дейнека Святослав Євгенович, Бліндер Олена Олександрівна, Сидорчук Ігор Йосипович (Чернівці, Україна) РІВЕНЬ ДЕСТАБІЛІЗАЦІЇ МІКРОБІОМУ ВУЛЬВОВАГІНАЛЬНОГО ВМІСТУ У ЖІНОК ДІТОРОДНОГО ВІКУ ІЗ НЕПЛІДНІСТЮ ПЕРШОГО ТИПУ	37

SECTION: PEDAGOGY

Arslonzoda Aziza Raxmato`vna (Farg`ona, Uzbekistan) MAKTAB O`QUVCHILARIDA INGLIZ TILIGA BO`LGAN QIZIQISHLARINI O`STIRISH UCHUN YANGI METODIKALAR	42
Ibragimov Abdipatto (Namangan, Uzbekistan) MUSIQA TA`LIMI DARSLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	45
Kadirova Yakitjan Buvabaevna (Tashkent, Uzbekistan) THE ROLE OF FAMILY AND EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN INCREASING THE CIVIL LITERACY OF STUDENTS.....	49
Qoraxonova Mashhura Karimovna, Axmedova Nigora Baxtiyorovna (Qashqadaryo, Uzbekistan) RIVOJLANISHDA NUQSONI BOR BO`LGAN BOLALAR KORREKSION ISHLARNI OLIB BORISH	51
Qo`shnazarova Mehribon, Otaboyev Akbar (Urgench, Uzbekistan) KELISHIK QO`SHIMCHALARINING USLUBIYATINI FANLARARO BOG`LAB O`RGANISH	53
Xamroyeva Dilafro`z Safarovna, Qurbonova Sevvara Ulosheva (G`uzor, Uzbekistan) MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTIDA DIDAKTIK O`YINLARNING BOLA PSIXIKASIGA TA`SIRI	59
Расулова Зилола Дурдимуратовна (Бухара, Узбекистан) МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБУЧЕНИЯ ПО ПРОГРАММИРОВАНИЮ В ПРАКТИЧЕСКИХ УРОКАХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ	62

SECTION: PHILOLOGY AND LINGUISTICS

Alimova Gulnoza Yuldashaliyevna, G`ayratpo`latova Gulnoza Odiljon qizi (Tashkent, Uzbekistan) DIFFERENT VIEWS TOWARDS UNDERSTANDING OF STANDARD AND NON- STANDARD VARIETIES OF ENGLISH.....	69
Gaybnazarova Dilafruz Toshpulatovna, Togalov Tursunbek Egamberdievich (Tashkent, Uzbekistan) LANGUAGE LEARNING IN EDUCATION IS A REQUIREMENT OF THE AGE.....	75
Ахмаджонова Гулшона, Яхеева Муштарий (Ташкент, Узбекистан) ПРОСТЫЕ И ЛЕГКИЕ СПОСОБЫ ВЫУЧИТЬ ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК.....	77

SECTION: PHILOSOPHY

Ashurova Mohistara (Tashkent, Uzbekistan) ENLIGHTENMENT AGAINST IGNORANCE.....	80
--	----

SECTION: POLITICAL SCIENCE

Boymirzayeva M.Sh. (Tashkent, Uzbekistan) THE PLACE AND ROLE OF THE ISLAMIC FACTOR IN MODERN WORLD POLITICS	83
---	----

SECTION: SCIENCE OF LAW

Oleinykov Sergei (Kharkiv, Ukraine)

TO THE LEGAL NATURE OF STATE POWER 88

Cara Evgheni Constantin,

Stati Vitalie Anatol (Chişinău, Republica Moldova)

INCRIMINAREA ACŢIUNILOR DE SEPARATISM ÎN REPUBLICA MOLDOVA 92

SECTION: TECHNICAL SCIENCE. TRANSPORT

Kayumov Javlon (Liaoning, China)

МОДЕРНИЗАЦИЯ ТЕХНОЛОГИИ НАПРАВЛЕННЫЕ НА ВЫПОЛНЕНИЕ
ПЛАНИРУЕМЫХ ГОРНОТЕХНИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ В АНГРЕНСКИЙ
БУРОУГОЛЬНЫЙ МЕСТОРОЖДЕНИЙ 97

SECTION: CULTURAL STUDIES

Ergashev Omonjon
Madaniyatshunoslik kafedrası o'qituvchisi
Namangan davlat universiteti
(Namangan, Uzbekistan)

OMMAVIY BAYRAM VA TOMOSHALAR REJISSURASIDA XUJJATLI HAMDA BADIY MATERIALLAR SINTEZI

Hujjatlarga murojaat etish – bu g'oyani amalga oshirish uchun badiiy vositalarga murojaat qilishdir. Bu narsani rassomning turli buyoqlarga bo'lgan murojaati bilan taqqoslash mumkin. Agar buyoqlar, o'z-o'zlaricha kartina yaratadigan bo'lganlarida edi, unda turli buyoqlar surib tashlangan kartina palitrasi eng zo'r kartinaga aylangan bo'lar edi. Xuddi shunday, hujjatlar qancha ko'p bo'lsa, o'ziga-o'zi badiiylik strukturasi vujudga keltirib, san'at tilida gapiradi, deb o'ylash ham noto'g'ri fikrdir.

Hujjatlarning o'zida – tayyor dramatik struktura bo'lmaydi. Hujjatli, tarixiy materiallarni badiiy adabiyotda – pesa yoki ssenariyda – qo'llashning o'zi etarli emas. Bo'lajak hujjatli asarni yaratish, g'oyaviy va badiiy masalalarni topish va hujjatli materialni topish va tanlash jarayonida boshlanadi. Faqat bo'lajak asarlarni g'oyasi bo'lsagina, muallif u yoki bu materialni qaerda, qanday ishlatish, auditoriyaga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqishi mumkin bo'ladi. SHundan so'nggina, qaysi hujjat asarning (pesa yoki ssenariyning) g'oyasiga to'g'ri kelishi yoki uning boshlang'ich yo'nalishiga muallifning qayta ishlashi, yordami kerak bo'ladimi, bu ijodiy jarayonda aniqlanadi.

Hujjatli materialni soxtalashtirish umumiy g'oyani buzilishiga olib keladi.

Biz avvalambor “dalil” va “hujjat” atamalarining tushunchasini aniqlab olishimiz lozim. Ko'p mualliflar “adabiy dalil” va “adabiy hujjat” tushunchalarini bir ma'noli deb qaraydilar. “Dalil” va “hujjat” sinonim sifatida qaraladi. SHu sababli ko'p chigalliklar paydo bo'ladi. Biz shuni aniq bilishimiz kerakki, tarixiy materiallarni qaytarib bo'lmaydi. Hujjatli asarda biz dalil bilan emas, balki dalil obrazi bilan uchrashamiz. Bu obraz xarakteri muallifning dalillarni ko'ra olishi, bilimi, uddaburonligi, xullas, uning pozitsiyasiga bog'liqdir. [1, 161-162 b.]

Hujjat – o'tkir quroldir. Uning haqqoniyligi asarning ishonchlilik effektini vujudga keltiradi. Lekin hujjatlarning haqqoniyligi tarixiy asar haqqoniyligiga, ob'ektivligiga kafolat bo'la olmaydi. Asarning jarangdorligi, hujjatning ma'nosi, asarning kontekstiga bog'liq holda o'zgarib, ijtimoiy davr kontekstiga qarab (sharhlash, boshqa hujjatlar bilan birgalikda kelishi) o'zgarishi mumkin.

Hujjatli asarda tasvirlanayotgan kartinaning ob'ektivligiga, haqqoniyligiga, muallif pozitsiyasining ob'ektivligi, fuqarolik haqqoniyligi va uning etarli darajadagi tayyorgarligigina kafolat bo'la oladi. Hujjat bilan ishlaydigan muallif, ayniqsa dramaturgning turli hujjatlarni montaj qilishi - asosiy ijod uslubi hisoblanadi.

Ikkita hujjatni birga kelishi o'z mazmuniga (ma'nosiga) ega bo'lib, yangi mazmuni (ma'noni) vujudga keltirib, bu qo'shiluvchilarning ikkalasida ham bo'lmagan, o'ziga xos "uchinchi ma'no" paydo bo'ladi.

Tarixiy-hujjatli dramaturgiya to'liq badiiy adabiyot, ya'ni "to'qima adabiyot" hisoblanadi. Faqat "to'qimalik", ayni damda katta tasavvur va fantaziyani talab qiladi.

Ommaviy bayram va tomoshalar ssenariysida, hujjatli materialning mutanosibliги keskin o'sib, hukmronlik qiladi. Ommaviy bayramlarda aniq hujjatlarni jaranglashi, hujjatli eksponatlarning ishlatilishi, bayram bilan qishloq, tuman, shaharni minglab iplar bilan bog'lab turgan real hayot ishtirokchilarining qalbida chuqur iz qoldiradi.

Aniq tarixiy tajribaga hujjatli yondoshish va kundalik hayotni badiiy-obrazli echim bilan birligi, kengaytirilgan ta'sirchan vositalar ommaviy bayramlarning rivojiga hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, mahalliy materialdan to'g'ri foydalanish bayramning ta'sirchanligini oshirib, emotsional ta'sir qilishga katta yordam beradi. [1, 163 b.]

Bayram qilinayotgan hodisaning aniqлиги ko'plab daliliy materiallarini taqdim etib, real qahramonlarning nomlarini tilga oladi.

D.M. Genkin yozganidek: – "Ommaviy bayramlar dramaturgiyasi va rejissurasining o'ziga xosлиги bu hujjatlilikdir. Ommaviy tomoshani sahnalashtirishning asosiy prinsipi bu – hayotiy materialni dramaturgik qayta ishlab, real hayotni teatrlashtirishdir. Ommaviy tomoshalar dramaturgiyasi va rejissurasi ikki yo'nalish bo'yicha – hujjatli publitsistika va badiiy obrazlilik – rivojlanib, ssenariyga masshtablilik va ta'sirchanlikni baxsh etadi". [2, 90 b.]

Ommaviy tadbirlardagi hujjatlilik harakat bilan o'tadigan joyni tanlash bilan uzviy bog'liqdir. Mahalliy material tomoshabinga yaqin va tushunarli bo'lib, boshqalardan ko'ra unga emotsionalroq ta'sir qiladi. SHuning uchun rejissyor-ssenarist mahalliy hujjat va omillarni yaxshilab, to'liq o'rganishi kerak. Ssenariy ustida ishlash jarayonida, ssenariyning ilk g'oyasi, bir necha bor qayta ishlanishi mumkin. Ba'zida bitta yangi hujjat, epizodning yo'nalishini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu juda uzoq mehnat talab qiladigan murakkab ishdir.

Ommaviy tomoshalar ssenariy muallifi doimo oliy maqsad haqqida o'ylab, xayolan bo'lajak tomoshaning kompozitsion qurilishini taxminiy tuzib, daliliy materiallar dengiziga g'arq bo'lishi kerak emas. Hujjatlar to'plangach, montaj jarayoni boshlanadi.

Hujjatli material bilan badiiy fikr o'rtasidagi, reallik bilan teatrlashtirish o'rtasidagi nisbat, ularning bir-biriga qo'shilishi, asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ommaviy tomoshalarda faqatgina hujjatlar, kino-videomateriallar, real raqam va materiallargina qo'llanib qolmay, balki tomoshada hikoya qilinayotgan voqealarning real qatnashchilari, qahramonlari ham ishtirok etishlari mumkin. Tomoshada real qahramonlarning qatnashishi esa katta emotsional ta'sir kuchiga egadir. Aniq montaj qilingan, ustalik bilan badiiylashtirilgan hujjat, ssenariyni sahnalashtirishdagi eng harakatchan, samarali vosita hisoblanadi.

Badiiy kompozitsiya ssenariysini yaratish jarayoni juda qiyin jarayon bo'lib, rejissyordan keng fikr qila olishni, tarixni yaxshi bilish, tanlangan materialdan to'g'ri foydalana olish kabi mahoratni talab qiladi. Bu ishga yuzaki qaralsa, xuddi oson ishga o'xshaydi, lekin har bir rejissyor shunday ish bilan ro'baro' kelsagina, qanday mushkul ishligni tushunib etadi. Biron hujjatni yoki dalilni noto'g'ri talqin etish oqibatida, minglab odamlarni namoyish etilgan tarixiy

voqealarga bo'lgan fikrlarini noto'g'ri yo'lga burib yuborishi mumkin. SHuning uchun material chuqur o'rganilganidan keyingina ssenariy ustidagi ishni boshlash mumkin.

YUqorida aytib o'tganimizdek "montaj" so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib "yig'ish, birlashtirish" degan ma'noni bildiradi. Lekin montaj faqatgina texnik uslubgina bo'lib qolmay, balki badiiy fikr qilish, xayotdagi g'oyaviy –falsafiy aloqalarni izlash uslubi. [1, 167 b.]

Adabiy-badiiy kompozitsiya ommaviy tomoshalarning turi bo'lib, o'ziga xos rejissuraga ega. "Adabiy-badiiy kompozitsiya" deb, adabiyotning bitta janriga asoslanib yaratilgan asarga aytiladi. "Adabiy montaj" deb, adabiyotning turli janrlaridan yaratilgan asarga aytiladi.

SHunday qilib rejissyor adabiy-badiiy kompozitsiyani "nimaga", "nima uchun?" va "qanday?" namoyish etish kerakligi bo'yicha muallif matnini ishlab chiqadi. Matn ustida ish olib borganda, psixologiyaning quyidagi qonuniga amal qilish lozim:

- harakatga qo'yilgan asarda, insoning eshitish qobiliyati yanada jamlanadi. Bu adabiy kompozitsiyani bir asar bo'yicha yaratishda, uning dramaturgik asosiga ko'proq e'tiborni qaratish kerak degani.

- dramaturgiyaning asosi - harakat bo'lib, harakat qarama-qarshiliklarda qurilgan bo'lib, qarama-qarshiliklar esa voqealar sistemasida namoyon bo'ladi. Bu voqealar badiiy adabiyotda syujetni vujudga keltiradi. SHundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, adabiy kompozitsiyaning yashovchanligi - mustahkam syujet asosidadir.

Adabiy kompozitsiyaning asosiy talabi - dramatik qurilish, ya'ni-ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va echim bo'lishi kerak. Dramaturgiyaning bu bo'laklari kompozitsiyaning yaxlitligi va tugallanganligini ta'minlaydi. Adabiy-badiiy kompozitsiya rejissurasida «adabiy montaj» eng asosiy ishlardan biri hisoblanadi. Bunday montajda turli matn bo'laklari, ma'lum mutanosiblikda bir butun asar shakliga keltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – T.: Aloqachi, 2008. 424 b.
2. D.M. Genkin. Massovye prazdniki. – M.: 1975. s 236.

SECTION: ECONOMICS

**Жўраев Бехруз Комил ўғли, Тоҳиров Адҳам Зоҳид ўғли,
Ҳақбердиев Илҳомжон Рустам ўғли
Магистрантлари
Қарши муҳандислик-иқтисодий институти
(Қарши, Ўзбекистан)**

САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ИННОВАЦИЯ ВА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШ.

Аннотация. Мамлакатимизнинг иқтисодий таянчи бўлган саноат корхоналарида ишлаб чиқаришни жадал суратлар билан ривожлантириш, унинг тармоқларида истиқболли инновацион ва инвестицион лойиҳаларни амалга ошириш орқали янги замонавий техника, дастгоҳ ва ускуналар, технология ва янгилликларни жорий этиш, энг аввало самарали иқтисодий фаолиятни ташкил этишни ва тўғри йўналтирилган саноат сиёсатини олиб боришни тақозо этмоқда. Мақолада саноат корхоналарини инновация ва инвестицияларини самарали бошқариш масалалари назарий жиҳатдан таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Инновация, диверсификация, инвестиция, стратегия, технология, интеллектуал, ишлаб чиқариш.

Аннотация. Требуется быстрое развитие производства на промышленных предприятиях, являющихся экономической основой нашей страны, реализация перспективных инновационных и инвестиционных проектов в ее отраслях, внедрение нового современного оборудования, инструментов и оборудования, технологий и инноваций, организация производственной хозяйственной деятельности и проведение правильно ориентированной промышленной политики. В статье теоретически проанализированы вопросы инноваций и эффективного управления инвестициями промышленных предприятий.

Ключевые слова: Инновация, диверсификация, инвестиция, стратегия, технология, интеллектуальный, производство.

Annotation. It requires rapid development of production at industrial enterprises that are the economic basis of our country, the implementation of promising innovative and investment projects in its industries, the introduction of new modern equipment, tools and equipment, technologies and innovations, the organization of industrial economic activities and the implementation of a properly oriented industrial policy. The article theoretically analyzes the issues of innovation and effective investment management of industrial enterprises.

Key words: *Innovation, diversification, investment, strategy, technology, intellectual, production.*

Кириш.

Бугунги кунда кўплаб ривожланган ва жаҳон иқтисодиётида етакчи ўринда турадиган мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики рақобатбардошликка эришиш ва дунё бозорларига чиқиш биринчи навбатда иқтисодиётни изчил ислоҳ этиш, таркибий жиҳатдан ўзгартириш ва диверсификация қилишни чуқурлаштириш, юқори технологияларга асосланган янги корхона ва ишлаб чиқариш тармоқларининг жадал ривожланишини таъминлаш, фаолият юритаётган қувватларни модернизация қилиш ва техник янгилаш жараёнларини тезлаштириш ҳисобидан амалга оширилиши мумкин. Ўзбекистоннинг ҳалқаро иқтисодиётда ўзига хос барқарор мавқеига эга бўлиши бевосита инновация ва инвестициялар фаолиятига боғлиқдир. Шу жиҳатдан Республикамызда ҳам янги қурилмалар, технологиялар ва воситаларни ишлаб чиқаришга жорий этиш соҳаси бўлган инновация фаолиятига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Инновацион янгиликларни иқтисодимиз таянчи бўлган саноат корхоналарини ижтимоий иқтисодий ривожланишида яратилиши эса бугунги кунда устувор йўналишлардан бири десак муболага бўлмайди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили:

Мамлакатни ишлаб чиқаришда инновация ҳиссасининг юқори улуши бўлган бўлган бозор иқтисодиётига, замонавий ва глобал бозорда рақобатбардош саноатга, шунингдек қулай инвестицион ва ишбилармонлик муҳитига эга жадал ривожланаётган мамлакатга айлантиришимиз лозим. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида аҳоли фаровонлигини тубдан ошириш ва турмуш сифатини яхшилаш, жамият ва давлатни ҳар томонлама ҳамда жадал ривожлантириш, мамлакатни модернизация қилиш ва ҳаётнинг барча соҳаларини либераллаштириш бўйича аниқ мақсадлар белгилаб олинди. Қўйилган мақсадларга инновацион моделга тўлиқ ўтмасдан туриб эришиш қийин албатта. Бунинг учун инновацион фаолият иқтисодиётнинг устувор тармоғи бўлиши ва инновацион ғоялар, ишланмалар, технологияларни амалда жорий қилишни рағбатлантиришнинг самарали тизимини яратишни тақозо этмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг “Инновацион фаолият тўғрисида”ги қонуни 2020 йил 7 апрелда Қонунчилик Палатаси томонидан қабул қилинганлиги ҳам мамлакатимизда инновацион фаолиятнинг эркинлиги ва давлат томонидан ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солинишига ҳам асос бўлди.

Илмий адабиётларда инновация сўзи инглиз тилидаги “innovation” сўзидан олинган бўлиб “янгилик” ва “янгилик киритиш” деган манога келиши таъкидланган. Бу янгилик замирида янги тартибни, янги одатни, янги услубни, кашфиётни тушуниш лозим. Янгиликни пайдо бўлиши ва уни ҳаётга татбиқ этилиши ораллигида вақт “инновацион лойиҳа” деб аталади. Давлатимиз раҳбари Шавкат Миромонович Мирзиёев “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сонли Фармонидаги 4-қисмда “Илмий тадқиқот ва инновация фаолиятини рағбатлантириш, илмий ва инновация ютуқларини амалиётга жорий этишнинг самарали

механизмларини яратиш олий ўқув юртлари ва илмий тадқиқот институтлари ҳузурида ихтисослаштирилган илмий-экспериментал лабораториялар, юқори технология марказлари ва технопаркларни ташкил этиш керак” деб таъкидлайдилар.

Бу берилган тарифларда асосий эътибор ушбу илмий изланишларга қандай мақсадлар қўйилганлигига қараб саноат корхоналарида инвестицион ва инновацион фаолиятларни самарали бошқариш учун инновацион ривожланиш йўлини “стратегия” деб ҳисобласа бўлади.

Бунда саноат ишлаб чиқаришида юқори технологиялар яратилади, янги рақобатбардош саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми ошириб борилади. Ўзлаштириб олиш стратегиясида миллий инновацион салоҳиятдан самарали бошқариш жараёнида ривожланган давлатларда ишлаб чиқариладиган саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ўзлаштирилади.

Инвестиция кенг маънода янги технологиялар, турли маҳсулотлар ва хизматлар, ташкилий – техник ва ижтимоий иқтисодий қарорлар шаклида ишлатилиши тушунилади. Янгиликнинг тузилиши, яратилиши ва тарқалиш жараёни “инновациянинг ҳаётий цикли” дейилади. Саноат корхоналарида инновацион бошқарувнинг устувор мақсадлари инновацион фаолиятни фаоллаштириш асосида ташкилотни ўсиши ва ривожланиши, янги товарлар ва янги технологияларни бозор томонга фаол ҳаракатлантириш, иқтисодий тараққий этиш ва янги жаҳон бозорларига киришни фаол ўсини учун ишлаб чиқаришни янада ихтисослаштирилган ва ҳар томонлама ривожлантириш имкониятларидан иборатдир.

Тадқиқот методологияси. Илмий изланиш натижалари бўйича илмий мақолани ёритишда саноат корхоналарини бошқаришда инновация ва инвестицияга қаратилган Ўзбекистон Республикасининг қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарорлари, иқтисодий, ижтимоий, соҳалардаги чет эл ва мамлакатимизнинг таниқли олимларнинг илмий асарлари ўрганилди. Саноат корхоналарини ривожлантириш ва соғлом ишбилармонлик муҳитини яратишни ифодаловчи асосий кўрсаткичлар илмий таҳлил қилинди. Шу билан бирга, тадқиқот жараёнида ушбу мавзуга оид назарияларни ўрганишда мантиқий фикрлаш, тизимли ёндашув, илмий мушоҳада, статистик ҳамда қиёсий таҳлил каби усуллари фойдаланилди. Мавзуни тайёрлаш ва ёритишда илмий техникавий ахборот манбаларидан, мавзуга оид дарсликлар, ўқув қўлланмалар, хорижий адабиётлар, даврий матбуот, илмий-амалий анжуман тўпламлари ва интернет маълумотларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар:

Республикамиз саноат корхоналарининг фаолиятини тўғри ташкил этиш ва самарали бошқаришда инновация ва инвестицияларни қўллашга кенг имкониятлар яратиб бермоқда. Саноат корхоналарида инновацион фаолликни таъминлаш, инновацион жараёнларни самарали бошқариш тамойиллари ҳамда инновацион фаоллигини баҳолаш услуги саноат корхоналари ўртасида соғлом рақобат вужудга келишини таъминлайди.

Олимларнинг фикрича, “миллий иқтисодиётни ривожлантиришда инвестицион ва инновацион жараёнларни бошқариш муҳим ҳисобланади. Саноат корхоналаридаги

моддий-техник базани янгилаш, ишлаб чиқариш объектларини ривожлантириш, янги фаолият турларини ўзлаштириш, корхоналарда инновацион муҳит яратиш каби асосий вазифалардан биридир.

Бу йўналишдаги илмий изланишларимиз натижалари кўрсатишича, инвестицион ва инновацион соҳада иқтисодий муҳит ўзгаришини белгилловчи қуйидаги бир қатор асосий мақсад вазифаларни ҳисобга олиш зарур:

- инновацион стратегик режани ишлаб чиқиш;
- инновацион лойиҳалар ва дастурларни шакллантириш ва фаолиятнинг йўналишларини аниқлаш;
- ташкилот тизими ҳамда инновацияларни бошқариш тизими ишлаб чиқилиши;
- ишлаб чиқариш жараёнларини ва инновацион маҳсулотлар реализациясини режалаштириш;
- рақобатчиларнинг илғор ютуқларини ва прогрессив тажрибасини баҳолаш ва улардан фойдаланиш;
- инновацион дастурларда кооперацияни ташкил қилиш;
- кадрларни танлаш ва жойлаштириш, HR ва KPI тизимини жорий қилиш.
- ишларни тақсимлаш ва уларни назорат қилиш;
- ижод қилиш муҳитини яратиш ва интеллектуал меҳнатнинг юқори мотивация билан таъминлаш.

Олиб борилган таҳлил натижасида, саноат корхоналарида янгиликларни жорий этиш ёки ўзлаштириш орқали инновацион бошқарувнинг қуйидаги асосий масалалари ҳал қилинишига эришиш кутилмоқда:

- саноатни инновацион ривожлантиришда ишлаб чиқариш, фан ва таълим интеграциясини такомиллаштириш йўналишлари.
- янги технологияларни жорий қилиш ва инновацион маҳсулотларни ишлаб чиқариш мақсадида саноат корхоналарининг ўзаро ҳамкорлигини янги шакллари йўлга қўйиш чора-тадбирлари.
- ҳудудлар инновацион салоҳиятини оширишнинг муҳим омили сифатида саноат зоналарини ривожлантириш имкониятлари.
- саноат корхоналарининг инновацион фаоллигини баҳолаш услубиёти каби масалалар ўрин олган.

Хулоса ва тақлифлар.

Илмий изланишларимиз натижалари шуни кўрсатадики, саноат корхоналари йўлида муаммоларни ҳал этиш бугунги кунда долзарб ҳисобланади. Ҳозирги вақтда амалга оширилаётган ислохотлар натижасида саноат корхоналарини ривожлантириш бу соҳадаги муаммоларни ўз вақтида ҳал этиш ва тегишли чора-тадбирларини кўриб бориш ҳар қандай ҳолатда ҳам тизимли амалга ошириб борилиши шарт. Таҳлил натижаларига асосан, саноат корхоналарини ривожлантириш ва уларни эркин фаолият кўрсатишлари учун инновацион муҳитни янада қулайлаштириш мақсадга мувофиқ бўлади. Ҳар бир менежер корхонани ривожлантиришда новатор бўлиши ва янгиликни ўз вақтида олиб келса, мамлакатимизда ва саноат корхоналарида ҳам албатта ривожланиш бўлади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Инновацион фаолият тўғрисида”ги қонуни.
<https://lex.uz/>
2. Г.Ф. Умарова. Инновация ва инвестицияларни бошқариш. – Тошкент 2020 йил.
3. С. Ғуломов, Ф. Қосимов. Стратегик ва инновацион менежмент. Тошкент 2013 йил.
4. Р.И. Гимуш Инновацион менежмент. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008 йил.

SECTION: HISTORY SCIENCE

Ergashev Ahmad Abdug'afforovich
Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi,
Toshmurodova Sarvinoz Quvondiq qizi
Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
(Denov, Uzbekistan)

QO'QON XONLIGINING BOSHQARUV TIZIMI VA HARBIIY MANSABLARI

Anotatsiya. Maqolada Qo'qon xonligidaning boshqaruv tizimi va yangi joriy etilgan mansablar hamda harbiy siyosiy boshqaruv tizimining tashkil etilishi, hukmdorlarning boshqaruv sohasida hamda harbiy sohada o'tkazgan siyosati haqida ma'lumotlar yoritiladi.

Kalit so'zilar: Beklik, viloyat, Sarkorlik, Umaro, Ulomo, Voliy, Hokim, Xonzoda, Mirzoda, Amirzoda, To'ra, Mingboshi, Kengash, Mehtar, Qo'shbegi, Amir ul-umaro, Qo'rboshi, Amirlashkar, Qal'abon, Botirboshi.

Аннотация. В статье описывается система управления Кокандским ханством и вводимые должности, а также организация военно-политической системы управления, политика правителей в административной и военной сферах.

Ключевые слова: Беклик, Провинция, Командующий, Umaro, Ulema, Губернатор, Губернатор, Ханзода, Мирзода, Амирзода, Тора, Мингбоши, Кенгаш, Мехтар, Кошбеги, Амир уль-Умаро, Корбоши, Амирлашкар, Калабон, Ботирбоши.

Annotation. The article describes the governing system of the Kokand Khanate and the newly introduced positions, as well as the organization of the military-political system of governance, the policy of the rulers in the administrative and military spheres.

Keywords: Beklik, Province, Commander, Umaro, Ulema, Governor, Governor, Khanzoda, Mirzoda, Amirzoda, Tora, Mingboshi, Kengash, Mehtar, Qoshbegi, Amir ul-Umaro, Qorboshi, Amirlashkar, Qalabon, Botirboshi.

Qo'qon xonligi tarixi masalalari bo'yicha turli davrlarda tadqiqot olib borgan tarixchi olimlar o'z tadqiqotlarida ushbu davlatning chegarasi va buning ma'muriy-hududiy bo'linishi xususida ham qisman to'xtalib o'tganlar Qariyib ikki asr hayot surgan Qo'qon xonligi murakkab va ziddiyatli siyosiy jarayonlarni boshdan kechirdi. Qo'qon xonligining dastlabki tashkil topgan davridagi hududi hokimyatni boshqargan turli salohiyatli uzoqni ko'zlagan hukmdorlarning harakatlari natijasida kengayib bordi. Zero, davlat hududi va unda yashagan aholi uning mavjudligini ko'rsatuvchi belgilardan hisoblanadi. Davlat tashkil topgan dastlabki davrlaridanoq moddiy, tabiiy homashyo manbayi bo'lgan hududini kengaytirish va boshqarishni tashkil etishga katta e'tibor qaratiladi. Qo'qon xonligida davlatchiligida ham bunga kata e'tibor berildi. [2]

Ma'lumotlarga ko'ra, ming urug'ining boshlig'i, taxminan 1669-1670 yillarda tug'ilgan Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad (1709-1721 yy.) Chodak xo'jalari qo'lida bo'lgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709-1710- yilda Farg'ona vodiysidagi minglar sulolasi hukmronligiga asos soldi. Ammo, uning hokimiyati hali ashtarxoniyatlardan to'la yoki batamom mustaqil emas edi. Chunki manbalarda Shohruhbiyning nomi ashtarxoniy Abulfayzxonidan so'ng tilga olinib, Shohruhbiyga Buxoro xoni tomonidan otaliq unvoni berilgani eslatiladi. Bu haqda tadqiqotchilarning ham fikrlari munozaralidir. Nima bo'lganda ham, Shohruhbiy Buxoro xonligidan mustaqil ravishda (nisbatan bo'lsa ham) siyosat olib borishga harakat qilib, minglar sulolasi tasarrufidagi yerlarni kengaytira boshladi. Shohruhbiy hukmronligi davrida Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atroflaridagi qishloqlar minglar sulolasi qo'lida bo'lgan. Qo'qon xonligi vujudga kelishi hukmdorlarining o'ziga yarasha mardonovor kurashi natijasida o'z mustqilligini mustahkamlab oldi. Mustaqillikka erishgandan so'ng davlat boshqaruv ishlariga katta e'tibor qaratdi, chunki bu juda muhim edi. Ichki tartibni mustahkamlamay turib tashqi dushmanga qarshi kurasholmas edi.

Davlatni idora qilish uchun ma'muriy va mahalliy boshqaruvda katta islohatlar o'tkazdilar. XIX asr manbalarida Qo'qon xonligi **beklik, ba'zan viloyat va sarkorlik** sifatida tilga olingan ma'muriy hududiy qismlarga bo'lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A. Kun) Qo'qon xonligidagi 15 ta beklarning nomini keltiradi. Bular: Qo'qon va uning atrofi, Marg'ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobodarhon. "Turkestanskiye vedomosti" (1876, №13) to'plamida esa Asaka, Marg'ilon, Baliqchi O'sh, So'x, Koson va O'zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi.

Hokimlar va hududiy bo'linma boshliqlari xon oilasi a'zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida yettita beklilik xonning o'g'illari va yaqin qarindoshlari tomonidan boshqarilgan. O'z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o'zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo'lib berganlar. Qo'qon xonligining ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning o'rdasi alohida o'rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi ko'plab vakolatlarga ega bo'lgan. Bek o'rdasida ham xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy etilgan bo'lib, ular mahalliy aholidan yig'iladigan soliq hamda to'lovlar hisobidan kun kechirishgan. Beklar xonning itoatkor vassallari bo'lib, mamlakatni idora etishida uni qo'llab-quvvatlashlari, zarur bo'lganda unga yordam berishlari, uning hurmat-izzatini joyiga qo'yishlari, kerakli vaqtda o'z qo'shinlari bilan harbiy yurishlarda ishtiroq etishlari va sovg'a-salomlar yuborib turishlari lozim bo'lgan. Qo'qon xonligida Qo'qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg'ilon, Chimkent, Jizzax, O'sh, Xo'jand, O'rtepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'nlab shaharlar mavjud bo'lgan. Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi.

XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal'a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To'qmoq, Qurtka, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo'ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham xizmat qilgan. Ushbu shahar va qal'alarda harbiy qism hamda ularga boshliq bo'lgan

botirboshilar bo'lgan. Qo'qon xonligining markaziy boshqaruv tizimi Buxoro va Xiva xonliklari boshqaruv tizimiga nisbatan kam o'rganilgan. Qo'qon tarixining u yoki bu masalalariga doir tadqiqotlarda xonlik boshqaruvining umumiy holatda o'rganib kelingan. Biroq ularda xonlik boshqaruv tizimi to'liq aks ettirilmagan. Xonlikning boshqaruv tizimi va unda faoliyat yuritgan mansablar va mansabdorlar to'grisida o'sha davrda yaratilgan manbalarda keltirilgan. Bu ma'lumotlarni qiyosiy o'rganish, tahlil etish va umumlashtirish orqali mazkur masalaga oydinlik kiritish mumkin. Qo'qon xonligida davlatning ma'muriy boshqaruv tizimida muhim mansablarni egallagan amaldorlarni ikki toifaga bo'lish mumkin. Bular dunyoviy hamda diniy amallar egalari bo'lib, dunyoviy ishlarga ma'sul amaldorlar umaro, diniy vazifadagilar ulamo deb yuritilgan. Shuning uchun ham manbalarda davlatning ma'muriy boshqaruv tizimida umaro va ulamo atamaları ko'p uchraydi. Muhammad Hakimxon to'ra – Muntaxab ut- tavorix asarida xonlik markaziy boshqaruvida beshta vazir bo'lganligini, bu vazirlar XIX asrning o'ninchi yillariga qadar xonlikning boshqaruv tizimida faoliyat ko'rsatib, davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida islohatlarni amalga oshirishga ma'sul bo'lganligini, vazirlardan biri devonbegi ed deb qayd etadi.

Mazkur ma'lumotdan davlatning markaziy boshqaruv tizimida beshta asosiy vazir bo'lganligi va ulardan biri devonbegi mansabini egallaganligi ma'lum bo'ladi. Xonlik markaziy boshqaruv tizimidagi besh vazirdan yana biri qushbegi bo'lib, bu xususida ham «Muntaxab ut-tavorix asarida ma'lumot beriladi. Fikrimizcha, uchinchi vazir inoq unvonigaega bo'lgan mansabdorlar bo'lsa kerak. Olimxon 1806 yilning may oyida O'ratepaga qilgan harbiy yurishida g'alabaga erishib, mazkur viloyatga Qadam inoqni hokim etib tayinlaydi. Hukmdorlar markaziy boshqaruvga yuqori mavqeidagi va o'ziga yaqin mansabdorlarni viloyatlarga hokim etib tayinlangan.

Muntaxab uttavorix asarida Qo'qon xonlari Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixon hukmronlik qilgan davrni kengroq yoritilgan va xonlik markaziy boshqaruviga oid bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlarga ko'ra, davlat boshqaruvidagi turli mansab va amallarga oliy hukmdorni buyrug'i bilan turli amaldorlar tayinlangan. Buni asar muallifi 1815 yilda Umarxon bir necha shaxslarni sadr, devonbegi, mirzaboshi, qushbegi, parvonachi, - etib tayinlaganligini keltirib o'tgan. Bular haqida Qo'qon xonligining markaziy boshqaruv tizimidagi mansabdorlarning faoliyatini o'rganish orqali oydinlik kiritish mumkin. Davlat boshqaruvida oliy hukmdordan keying o'rinda bosh vazir turgan, u mingboshi nomi bilan atalgan. Qo'qon xonligi bosh vaziri bo'lgan mingboshi va uning faoliyati xususida V. Nalivkin, – ...ushbu amaldor davlatning barcha ichki ishlarini boshqarib, ... shu bilan birga tashqi siyosiy ishlarda ham xonning bosh maslahatchisi bo'lgan Shu o'rinda xonlik tarixiga oid manbalarda Umarxon davrigacha mingboshi nomi uchramaydi. Bu mansab Umarxon tomonidan ta'sis etilib, 1810-yilda unga Shohi Marg'iloniy ismli shaxs tayinlanganligi bir necha manbalardan ma'lum. Lekin bu bilan Qo'qon xonligida, Umarxon hukmronligiga qadar bosh vazir vazifasini vazifasini bajaradigan mansabdor bo'lmagan degan xulosaga kelmaslik kerak. Muntaxab ut -tavorix asarida keltirilgan Norbo'tabiy hukmronligi davrida bosh vazir to'grisidagi ma'lumot bu masalaga oydinlik kiritadi. Mazkur asarda Xo'jand viloyati xokimi Abdurahmon Bahodirning qo'shbegi mansabida faoliyat yuritgan ukasi Norbo'tabiyning bosh vaziri bo'lganligiga ishora qilinadi. Xon avlodlari **xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to'ra** deb atalganlar. Xonlikdagi davlat nizomi mutlaq yakka hokimlik bo'lib, xonning o'zi cheklanmagan hokimiyatga

ega bo'lsa-da, ma'lum tarixiy davrlarda uning salohiyati va hokimiyati cheklanib, saroy amaldorlari hamda qo'shin boshliqlarining xonga ta'siri kuchli bo'lgan.

Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma'muriyat, qo'shinlar va qo'shin boshliqlari asosan soliqlar hisobidan rag'batlantirilgan. Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, xon saroyida **mingboshi** boshchilik qiladigan **Kengash** tuzilgan bo'lib, bu kengash saroydagi davlat ahamiyatiga molik muhim ishlarni ko'rib chiqqan. Dasturxonchi, risolachi va boshqa muhim amaldorlar a'zo bo'lgan ushbu kengash davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega edi. Qo'qon xonligida asosan Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixonlar davrida (1798-1842 yy.) davlat boshqaruvi va davlatchilik ichki va tashqi siyosat ancha barqaror hamda nisbatan tinch rivojlangan. Qo'qon xonligida unvonlar va mansablar ular ijrochilarining vazifalari hamda martabalariga qarab **harbiy, harbiy-ma'muriy, saroy unvon va mansablari hamda ma'muriy vazifalari, diniy mansab va unvonlar hamda diniy qozixona** amallariga bo'linar edi. [11]

Xon saroyida quyidagi harbiy mansab va unvonlar joriy etilgan:

- Amir ul-umaro amirlar amiri. Xon tomonidan keng vakolatlar berilgan (davlatdagi muhim ishlar, amaldorlarni amalga qo'yish va olish, davlatdagi ichki tartibni saqlash, saroydagi tartib intizom kabilar) shaxs bo'lib, xondan keyingi eng yuqori mansab hisoblangan;

- Amirlashkar amir ul-umarodan keyingi mansab. Qo'qon xonligida mingboshi harbiy unvonining vazifalari, darajasi amirlashkarlikka teng bo'lgan;

- Mingboshi ma'mur sifatida ming nafar otlig askar beradigan mulkning hokimi. Bu unvondagi shaxs harbiy yurishlar vaqtida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olgan. Bu unvonning egasi vazirlikka ham da'vogar bo'lgan. Bu unvon SHeralixon davrida (1842-1844 yy.) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketgan;

- Botirboshi botir bahodirlar boshlig'i. Besh yuz kishidan ko'p lashkarga boshchilik qilgan. Viloyatlarda botirboshi harbiy va qo'shin ishlariga mas'ul edi. Botirboshi ba'zan qurilish hamda sug'orish ishlariga ham boshchilik qilgan. (Ulug' nahr arig'i, Otabek botirboshi).

- Qo'shbegi harbiy qo'shinning boshlig'i. Bu mansab yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshi unvonini olishga da'vogarlik qilgan hamda alohida viloyatga ham hokim bo'lishi mumkin edi.

- Voli yoki voliy (noib, muovin) tobe etilgan viloyat va tumanlarda xonning o'rinbosari. Viloyatlarda lashkar unga itoat etgan hamda u viloyatning harbiy ma'muriy ishlariga boshchilik qilgan.

- Qal'abon yoki kutvol Qo'qon xonligining chegeralarida joylashgan qal'a va istehkomlarining hokimi bo'lib, shu hududlarning harbiy-ma'muriy, xiroj va boj olish ishlariga javobgar bo'lgan. Harbiy maqsadga ko'ra, qal'abon vazifasiga dodxohdan qushbegigacha bo'lgan shaxslar tayinlangan.

- Qo'rboshi qo'rxona ya'ni aslahaxona boshlig'i. Bu mansab egasi xon va mingboshiga itoat etgan. Qo'rboshi qo'rxona, miltiqxona, to'pxonalarga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berish jarayoniga javobgar bo'lgan.

- Yofar soqchilar boshlig'i. Bu mansab egasining guruhi yuz nafar askardan iborat bo'lgan. Yofar o'z guruhining hisob-kitobi, yillik xarajatini askarlari uchun xazinadan olib bergan. Manbalarda yofarlar g'allagir (g'alla oluvchi), javgir (bug'doy oluvchi) va sarmo oluvchi sifatida ham qayd etilgan.

- To'pchiboshi to'pchilar, zambarakchilar guruhi boshlig'i.
- To'qsabo o'zlarining tug'iga ega bo'lgan harbiy guruhning boshlig'i.
- Ponsadboshi besh yuz nafar askardan iborat guruh rahbari.
- Yuzboshi yuz kishilik harbiy dasta boshlig'i.
- Panjohboshi ellikboshi, ellik nafarli harbiy guruh boshlig'i.
- Dahboshi o'n kishilik harbiy guruh boshlig'i.
- Qorovulbegi soqchilar va qorovullar boshlig'i.

Harbiylar qatoriga askar, sarboz, nukar, sipohi, mergan, mahram, botur, to'pchi, zanbarchi, qo'rchi, qorovul kabilar ham kirib, qo'shin safida, nog'orachi, surnaychi, to'g'chi (bayroqdor) kabilar ham xizmat qilganlar. Bu harbiy unvonlar orasida mingboshidan ponsadboshigacha bo'lganlari oliy unvonlar, qo'rboshidan qorovulboshigacha bo'lganlar o'rta unvonli mansablar, qolganlari esa past unvonlar hisoblangan. Elikboshidan mingboshigacha bo'lgan harbiy lavozimdagi amaldorlar o'z xizmatlariga mulozimlar olganlar. Ponsadboshidan yuqori mansabdagi harbiylarga yana mirzolar va munshiylar ham hizmat qilgan. Manbalarda harbiylarga saroydan yiliga turli hajmdagi maosh berilganligi qayd etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Qo'qon xonligi boshqaruvi monarxiya edi.

Asosiy hal qiluvchi qarorni hukmdor chiqarar edi. Boshqaruvda xon o'ziga yaqin kishilarni hamda davlat oldida xizmat ko'rsatgan shaxslarni yuqori lavozimga tayinlar edi. Xonlik boshqaruv tizimidagi maslahat organi 'Oliy Kengashning mavjudligi Qo'qon hukmdorlari xonlikni tarixiy vorisiylik, o'zbek davlatchiligi an'analari asosida olib borganligini ko'ramiz. Davlatchiligimiz tarixida muhim o'rin tutgan Qo'qon xonligi o'zining ma'muriy va siyosiy boshqaruv tizimining o'ziga xos tomonlari bilan qo'shni xonliklardan farq qilgan.

Buni shundan ham bilish mumkinki Qo'qon xonligida ma'muriy boshqaruv tizimidagi mansablar turli xonlar davrida o'zgarib turgan yoki yangi mansab bilan almashtirilgan. Chunonchi Qo'qon xonligi tarixshunosligida keltirilgan ma'lumotlarga asosanib shuni aytish mumkinki „mingboshi“ lavozimi Umarxon61 davridan boshlab bosh vazir vazifasini bajargan. Undan oldin bu lavozimda „Qo'shbegi“ mansabidagi shaxs faoliyat yuritgan. Boshqaruv tizimidagi amaldorlarga asosan o'zining boshqaruv tizimidan kelayotgan daromatdan maosh olgan. Ma'lumotlarga qaraganda har bir mansabdor shaxs o'zining ko'rsatgan mehnatiga yarasha haq olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ishoqxon to'ra Ibrat. Farg'ona tarixi. – T.: Ma'naviyat, 2005.
2. Abdurahimova N.A., Isakova M.S., Suleymanova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. – T.: Sharq, 2007.
3. Sagdullaev A., Mavlonov O. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2006
4. Nabiev P.H. Iz istorii Kokandskogo xanstva. – T.: Fan, 2000
5. Bobobekov H. Qo'qon tarixi. – T.: Fan, 2001
6. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T., 2000
7. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. – T.: Sharq, 2000.

8. Sagdullaev A., Aminov B.B., Mavlonov O.M., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.
9. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan. – T.: Sharq, 2012.
10. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. – T.; Yangi asr avlodi, 2012.

**Qo'shnazarova Mehribon,
Otaboyev Akbar
UrDU magistr
(Urgench, Uzbekistan)**

PAHLAVON MAHMUDAN SO'RADIM MADAD

Annotatsiya. Ushbu maqolada kuragi yer ko'rmagan pahlavon, javonmardlik tariqatining davomchilaridan biri, "Puryoyi Vali" laqabi bilan dunyoga tanilgan muhtaram zot Pahlavon Mahmud hayotining eng muhim qirralari, ruboiylarining xususiy tahlili, ijodining falsafiy yo'nalishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xiva, "Puryoyi Vali", "Qitoliy", "Polvonpir", Pahlavon Mahmud, ruboiy, falsafa, javonmardlik tariqati, qofiya, she'riy san'atlar, lirik she'r, lirik qahramon.

O'tmish saboqlaridan oziq olib turmaslik jamiyatni pirovard natijada ildizsizlikka olib keladi. Ildizsiz daraxtning qismati esa yaxshi ma'lum. Pahlavon Mahmud ana shunday muqaddas ildizlarimizdandir. Adib o'zining ijodiy, ijtimoiy faoliyati va bu faoliyatning muayyanligi hamda natijaliligi bilan avliyolik masnadiga munosib zot bo'lgan. Ul zot bu darajaga hech qachon tirmashmagan, bu darajadan hech qachon tushmagan, balki bu darajada mangu barqaror siymodir. Suyukli adib ruboiylari asosida vatanimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod yuragini ezgulikka to'ldirib, yovuzlikka o'rin qo'ymaslik biz ustozlarning asosiy burchimizdir. Dars jarayonida bunday savobli ishni amalga oshirish uchun har bir muallim dars o'tishning innovatsion usul turlari bilan yaqindan tanish bo'lmog'i darkor. "Pahlavon Mahmud hayoti va ijodi" mavzusida zamonaviy usullarda ishlangan darsimni e'tiboringizga havola qilmoqchiman.

"Pahlavon Mahmud" hujjatli filmidan parcha namoyish qilinadi

O'qituvchining kirish so'zi:

Kuyladim, fazoga naqlim yetmadi,
O'yladim, dunyoga aqlim yetmadi.
Qay ishga qo'l urdim, shaxdim yetmadi,
Pahlavon Mahmuddan so'radim madad.

Qadim va navqiron allomalar yurti bo'lgan, Ko'hna Xiva qal'asini o'z bag'riga jo qilgan Xorazm – qomusiy allomalar, buyuk shoirlar, iste'dodli san'atkorlar, kuragi yer ko'rmagan tengsiz pahlavonlar yurti. Bugungi darsimizda siz bilan mashhur faylasuf olim, insonparvar shoir, Xorazmda Najmiddin Kubrodan boshlangan javonmardlik tariqatining davomchisi, Sharqda nomi chiqqan pahlavon va pahlavonlarga ustozlik qilib, "Puryoyi Vali" ("aziz va mukarram") laqabini olgan Polvonpir – Pahlavon Mahmud hayoti va ijodi, ruboiylarining xususiy tahlili bilan tanishamiz. Ularning qilgan amallari, bosgan izlari biz uchun hamisha o'rnak bo'lmog'i lozim.

Ilohim, ularning ruhlari shod bo'lsin!

Reja:

1. Dunyoni mahliyo aylagan diyori... 2. Xorazmdir asli marldlar diyori.
3. Aqlidagi qudrat, qudratdagi aql... 4. Qaydagi xoki pok, tavof qildim men,

Xokimni mening endi tavof kim qilgay. 5. G'ofil va o'jizga bu zolimlar o'ch,
Hushyor va kuchli bo'l, bo'lak haq yo'q!

Tayanch tushunchalar: 1. Tasavvuf 2. Javonmardlik tariqati 3. Ruboiy 4. Taronaiy ruboiy
5. Xosa ruboiy 6. Hikmat.

Dars turi: Kichik guruhlar bilan ishlash.

Dars usuli: Baholash va taqqoslash.

Dars ikki shart asosida olib boriladi:

1 – shart: "Fikrlar hujumi"

2 – shart: "Tafakkur va talqin"

Aziz o'quvchilar, Puryoyvali, Polvonpir nomlari bilan shuhrat, dovruq qozongan bobomiz o'z ruboiylarida insonparvar, mard, mehr – muruvvatli, saxovatli insonlarni mevali daraxt timsoli orqali tasvirlashni xush ko'rgan. Shuning uchun ham men sizlarni turli mevalar orqali uchta guruhga ajratib olaman. Negaki mevalar inson organizmiga quvvat beruvchi eng zarur ozuqa bo'lsa, bobomiz ruboiylari bizga ma'naviy ozuqa beruvchi tengsiz qudratdir. O'quvchilar olma, nok, anor mevalari bilan uch guruhga ajratiladi: 1 – guruh: "Olma"; 2 – guruh: "Nok"; 3- guruh: "Anor"

Guruh sardorlari tayinlanadi. Har bir guruh a'zolari shu mevalarning foydali tomonlarini gapirib (biologiya fani bilan bog'lanamiz) o'tadilar.

1- Shart: "Fikrlar hujumi"

Har bir guruh uchun Pahlavon Mahmud hayoti va ijodi bilan bog'liq sahna ko'rinishidan parcha qo'yib beriladi. Ana shu sahna ko'rinishlarini guruhlar adib hayoti, polvonligi, shoirligiga bog'lab davom ettirishadi va shu qirrasida daraxtdagi mevalarda yashiringan 5 ta muammoli vaziyat orqali izchillikda yoritiladi:

1. "Olma" guruhi uchun Pahlavon Mahmud hayoti bilan bog'liq sahna ko'rinishi namoyish qilinadi.

2. "Nok" guruhi uchun Pahlavon Mahmudning pahlavonligi bilan bog'liq sahna ko'rinishi namoyish qilinadi.

3. "Anor" guruhi uchun Pahlavon Mahmudning iste'dodli shoirligi bilan bog'liq sahna ko'rinishi namoyish qilinadi.

Misol tariqasida "Olma" guruhi uchun berilgan topshiriq va o'quvchilar ning to'g'ri javobini ko'rsatib o'tmoqchiman: "Olma" guruhi uchun Pahlavon Mahmud hayoti bilan bog'liq sahna ko'rinishidan parcha namoyish qilinadi. Guruh a'zolariga parchani davom ettirish topshirig'i beriladi (1 – sahna ko'rinish: Pahlavon Mahmudning dunyoga kelishi haqidagi rivoyatdan parcha namoyish qilinadi)

Salomlarim senga, ey ko'hna dunyo,

Salomlarim senga, bobo yurt!

Tizginsiz xayollar moziyga boshlar,

Rivoyatim sirli tarixdan so'ylar!

Uzun tuya karvoni ortib og'ir yukini,

Ko'p yaxshi niyatlarda bosib o'tib yo'lini,

Ko'hna Urganch tomondan Xiva sari yo'l oldi

Yo Rabbim in'om aylab hayot ishqini soldi...("Olma" guruhi a'zolari rivoyatning davomini og'zaki bayon qiladilar va savollarga quyidagicha javob berishadi:

“Olma” guruhining savollarga bergan javoblari:

1. Puryorvaliy qaysi mamlakatlarda kurash tushib “kuragi yer koʻrmagan pahlavon” nomini oldi? 1. Oʻrta Osiyo 2. Hindiston 3. Eron

2. Pahlavon Mahmud nima uchun “Qitoliy” taxallusi bilan ham ijod qilgan?

Pahlavon Mahmud Qitoliy taxallusi bilan ham ijod qilgan. Ushbu taxallus pahlavonlik bilan bogʻliq. “Qitol”ning maʼnosi “bir – biri bilan jang qilmoq, kurashmoq” demakdir.

3. “Futuvvatnomai sultoniyy” asarida koʻrsatilishicha, kimni pahlavon deyish mumkin?

1) baquvvat, jussa – gavdali; 2) shirin tilli; 3) qoʻrqmas, yurakli; 4) yetuk aqlli;

5) sabrli; 6) barkamol ilmi; 7) doimiy jiddiy jahd qiluvchi, yaʼni harakatchan, xushahloq, haromdan hazar qiluvchi, saxiy, noz – neʼmat dasturxonchi ochiq odam

4. Qitoliyning kuragi yer koʻrmagan bahodirligini koʻrsatadigan 3 ta hikoyani batafsil naql qiluvchi asar va uning muallifi qanday nomlanadi?

Husayn Fanoiyning “Majolis ul – ushshoq” asari

5. Dunyodagi eng kuchli inson deganda qanday insonni tushunasiz?

Kuchlilik kurashda yiqitish emas, gʻazabi kelganda oʻzini bosib olishdir; kuchlilik nafsni tiyishdir; boylik mol – u dunyoning koʻpligi bilan emas, nafsning toʻqligi bilandir.

Izoh: 1 – shart boʻyicha uchta guruhning ishi yakunlanadi, gʻolib guruhlar tagdirlanadi.

2 – shart: “Tafakkur va talqin”

Aziz oʻquvchilar! 2 – shart uchun men sizlarni yangidan gullar bilan 4 ta guruhga ajratib olaman. Negaki gullar – bahor elchilari. Bahor – fasllar kelinchagi. Bahor – yangilanish, yasharish fasli. Tabiat xasis emas, u tikandan gul, zahardan bol yarataveradi. Gullar – goʻzallik malikasi. Gul koʻzlarga quvonch, dillarga orom bagʻishlaydi. (Toʻrt turdagi: chinnigul, atirgul, kala, nastarin gullari oldindan taxt qilib qoʻyiladi) Oʻquvchilar oʻzlari sevgan gullarni tanlab oladilar va bir turdagi gulni tanlagan talabalar bitta guruh aʼzolari boʻlib birlashadilar. Oʻquvchilar oʻzlari tanlagan gullarning inson hayotidagi foydali tomonlarini lirik chekinish qilib soʻzlaydilar. Guruhlar Pahlavon Mahmud taxalluslari bilan qayta nomlanadi: 1. Chinnigul guruhidagilar – Puryorvaliy 2. Atirgul guruhidagilar – Qitoliy 3. Kala guruhidagilar – Polvonpir 4. Nastarin guruhidagilar - Pahlavon

Har bir fan (dars) ning o'ziga xos xususiyati bo'lishi tabiiydir. Musiqqa o'qitishning ham o'ziga xoslik tomonlari ko'p albatta. Bu uning tashkiliy tuzilishi va amaliy ijrochilik bilan bog'liq ko'rinishlarida yaqqol namoyon bo'ladi. SHuning uchun darsning har bir faoliyat turida ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin. Darsda olib boriladigan o'qituvchini turli faoliyat shakllari ma'ruza, hikoya, tushuntirish, namoyish qilish, ko'rsatish, tinglantirish, suhbat, savol – javob, jamoa bo'lib kuylash, ovoz sozlash mashqlari kabilarni har birini mazmun va mohiyati mavjud shart – sharoit, o'qituvchi va o'quvchilar imkoniyatiga muvofiq tarzda texnologiyalarni tadbiiq etish mumkin. Bunda musiqqa o'qituvchisining ham o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Musiqqa san'atiga muhabbat, qiziqish, darsni emotsional ko'tarinki ruhda o'tkazish, bolalarni sevish, ulardagi musiqiy qobiliyat va qiziqishlarni e'tiborga olish ularni ro'yobga chiqarishga intilish shular jumlasidandir.

Agar o'qituvchida mavjud xususiyatlar bo'lmasa har qanday pedagogik texnologiyalar ham quruq, mazmunsiz va qiziqarsiz, samarasiz bo'lib qolishi ham hech gapmas. Chunki har qanday ta'lim shakli, modeli, turi o'qituvchining pedagogik mahorati, bilimi, malakasi va artistlik iqtidorisiz kutilgan natijani bermasligi aniq.

Ma'lumki, musiqqa o'qituvchisi o'quv tarbiya ishlari baravariga olib boradi. O'quvchilarni musiqqa san'ati orqali tarbiyalashda o'qituvchining yaxshi sozandalik mahorati,

yaxshi ovozga ega bo'lishi, nota o'qish, turli vositalardan oqilona va o'rinli foydalana olishi, so'z mahorati, o'quvchilarni qobiliyatlarini oshira bilishi muhim. [1, 62-b.].

Musiqqa o'qituvchisi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi lozim. Doimiy kuzatishlar sababli o'qituvchi pedagogik mahoratini oshirib boradi. U vaziyatni baholashga, o'quvchilarni ichki tuyg'u, qiziqish va qobiliyatlarini sezishga o'rganadi. Kuzatish birinchi sinfdan - ettinchi sinfga qadar davom etadi. Bunda qo'llanilayotgan usul, shakl va pedagogik texnologiyalarning ham samaradorlik, qulaylik, bolalar uchun qiziqarli va o'ng'aylik jihatlari aniqlanib boriladi. [2, 66-b.].

Musiqqa ta'limining o'ziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatlari, shuningdek o'qitish usullari, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar, vositalar tahlili va ularni umumiy ijodiy – ijobiy jihatlarni umumlashtirish musiqqa ta'limini o'zigagina xos bo'lgan yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Bular ham o'z maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya bo'lib, ularni musiqqa mashg'ulotlariga tadbiiq etish yaxshi natija bermoqda. Bunday darslar o'quvchilarda yaxshi kayfiyat, jo'shqinlik, ko'tarinki ruh va intilishni kuchaytirmoqda. Maktab o'quvchilarining musiqqa san'atiga qiziqtirish va ta'lim samaradorligini ta'minlashda bir qancha o'yin metodlari va ta'lim usullari mavjud. Ular qatoriga hozirgi kunda ilg'or, tashabbuskor o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan quyidagi texnologik darslarni alohida ko'rsatishimiz mumkin:

- ♪ konsert darslar;
- ♪ viktorina darslari;
- ♪ intervyu darslari;
- ♪ konkurs darslari;
- ♪ quvnoqlar va zukkolar darslari;
- ♪ bahs – munozara darslari va h.k.

Bu darslarning har biri o'z tuzilishi, vazifasi, maqsadi va metodik asoslariga egadir. [2, 32-b.]. Boshlang'ich sinflarda musiqqa darslarini o'yin tarzida (qo'shiqlarni, o'yin orqali, tashkil etish, musiqaga raqsga tushish "chigil yozdi o'yin"lari) olib borilganda o'quvchilarning faolligi oshadi va ular berilgan topshiriqlarni nisbatan oson bajaradilar. Mana shu aytib o'tilganlarning o'ziga ham musiqqa darslarini o'z tabiatiga ko'ra yangi – yangi o'ziga xos va zamonaviy interfaol usullardan foydalanishida keng imkoniyatlariga ega ekanligini ko'rsatadi va shu o'rinda musiqqa o'qituvchisining zukkoligi, mahorati, tajribasi va qanday texnologiyalardan, qanday faoliyat mavzularini o'tishda, pedagogik shart –sharoit va o'quvchilarning qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlashi va qo'llashi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Masalan, **konsert darslarini** o'quvchilarda sahna madaniyatini shakllanishiga, o'zlarini ko'pchilik oldida ko'rsatish, yaxshi imkoniyatlarini namoyish etish, o'zini artistlardek tutish xislatlarini o'sishiga, **viktorina darslari** o'quvchilarda topqirlik, izlanuvchanlik, tez fikrlash, eslab qolish qobiliyat va ko'nikmalarini rivojlanishiga, **bahs – munozara** darslari ham o'quvchilarni mustaqil fikrlash, hozirjavoblik, mavzu va masalalarga ijobiy yondoshish, nutqlarini teranlashib borishiga ijobiy ta'sir etadi.

Quvnoqlar va zukkolar darsida o'quvchilar o'zlarining topqirlik, zukkolik, xushyorlik, maqsad sari intilish kabi sifatlarini namoyish etadilar. **Tahlil darsida** musiqqa savodi, musiqqa

tinglash, qo'shiq kuylash jarayonlarida o'tilgan asarlarni mukammal tahlil qilishga e'tibor qaratiladi, bunda o'quvchilarni nazariy savodxonlik malakalari muhim rol o'ynaydi.

Musiqi madaniyati darslarini tashkiliy tuzilishi va shakllariga ko'ra yana keng qo'llaniladigan quyidagi turlarini ham ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Tashkiliy darslar;
2. Aralash darslar;
3. Dominantali (darsdagi biron bir faoliyat turi qo'shiq kuylash, musiqi tinglash, musiqi savodxonligi, musiqiy ijodkorlik boshqalaridan ustunroq bo'ladi) darslar;
4. Umumlashgan darslar;
5. Intervyu darslar;
6. YAKunlovchi darslar.

Ta'limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi, muvaffaqiyatini belgilab beruvchi vositalardandir. [3, 45-b.].

Hozirgi vaqtda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish haqida turli – tuman fikr, qarash, yondashuvlar mavjud. Bu ham tasodifiy emas albatta. Zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiya asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.

Umumta'lim maktablari "musiqi madaniyati" darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish asosida o'quvchilarning musiqiy – nazariy bilimlari, amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan tadqiqot izlanishlar, amaliy ishlarning samarali natija berishi yuqorida ta'kidlab o'tilgan xulosaviy fikrlar bilan izohlanadi.

O'qituvchi bunday ta'lim texnologiyalarini qo'llashi natijasida o'quvchilarning ushbu darslarga qiziqishi yanada ortadi, ularning diqqatini jalb qiladi va xotirasini mustahkamlaydi. [4, 12-b.]. Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan ilg'or pedagogik texnologiyalar o'quvchilarga bilim berishda, ularni ma'naviy tarbiyalashda o'z samarasini ko'rsatadi. Qayd etilgan pedagogik texnologiyalar o'qituvchi tomonidan musiqi madaniyati darslari jarayonida qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan musiqi fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish, ta'lim metodlaridan samarali foydalanish, unga fan predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasiga ko'ra ta'lim samaradorligini oshirishiga yordam beradi.

Ushbu muammolarni ijobiy hal etish umumta'lim maktablarida musiqi madaniyati mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyalari bilan o'quvchi - yoshlarni har tomonlama chuqur tanishtirib borish, ularda musiqi san'atiga hurmat, mehr -muhabbat, ularni o'rganishga ishtiyoqini kuchaytirishga va shu orqali ularni tarbiyalash ishlarini samarali kechishiga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov SH.. Uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integrasiyalashuvi. – T., 2005. (BMI).
2. Gulboyev T, Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish. – Navoiy, 2001
3. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003

Kadirova Yakitjan Buvabaevna
independent researcher
(Tashkent, Uzbekistan)

THE ROLE OF FAMILY AND EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN INCREASING THE CIVIL LITERACY OF STUDENTS

Annotation. *The article talks about the issues of increasing students' civil literacy, citizen, civil society and civil literacy, as well as the acquisition of the skills necessary for the implementation of students' civil conduct, the subject of civil behavior and activities.*

Base phrases: *democratic legal state, civil society, civil literacy, state symbols, social activity, legal culture, educational upbringing.*

It is known that a person is born in a family and here he is perfected. Legal education, such as social education and upbringing, also begins for the first time from the family. The upbringing given by parents or other adult family members in the family is the basis for the formation of the consciousness of the individual. At the same time, the family environment has a different, that is, positive or negative impact on the socialization of the individual. The initial stage of legal education is formed in the family. Since the family is the main unit of society, the child is formed as a person and in the future is considered the main foundation in the development of the child as a person, having found its place in society and becoming a spiritually harmonious person.

The knowledge given in educational institutions is important in the growth of the legal culture of the students of our country. As the number of learners of legal knowledge increases year by year, the level of legal culture of the population in our country is also increasing. Secondly, legal literacy is the direct participation of students in the legal and political life of society.

Each schoolboy expresses his own views on legal relations, conversations on legal topics, meetings, events. Such communication and relationship affect the consciousness of the individual, creating favorable conditions for the formation of a legal culture. For this, it is necessary to pay attention to their future specialty in providing legal education to students. In addition to giving them general legal knowledge, it is necessary to give them legal knowledge, which at the opportunity level is subordinated to their specialty.

For example, if you will be a professional College of finance or an institute Ti, you should pay more attention to the areas of financial law and economic law. In today's education system, legal education is conducted at the following stages.

It is necessary to give legal education to our sons and daughters from the earliest age.

It is a sign of legal culture that students fully understand their right, obey the law and respect it, fully fulfill their legal duty and obligations, do not violate the limits of the law and are uncompromising against the offenders.

In our opinion, for the formation of legal culture in our readers, special attention should be paid to the following: - understanding the rule of Law, regular study of a number of laws, decrees and decisions adopted in our country; - getting acquainted with the Constitution and

existing laws; – regular reading of legal newspapers and magazines; – participation in events held in the neighborhoods; – monitoring of legal broadcasts and broadcasts on television and radio serves as an important tool for increasing legal culture.

Each of the components of the student's civil literacy will perform specific functions and they will be most flexible on account of the connection between its components. Based on the functions, the precise component content is enriched with another component content.

Lack of legal culture leads to an offense, which has its own proof in life practices. Factors that lead to delinquency:

1. Improper upbringing of children and the negative impact on them of parents and other older persons;
2. An adult's indifference to the children's ill-intentioned deeds of society;
3. Shortcomings in educational processes in school;
4. The inability of students to master the sciences and lack of involvement in science circles;
5. Uncontrolled and neglected stay of children;
6. The fact that cooperation between the Family, Educational Institutions, Health, neighborhood system is not well established.

For the formation of legal culturalism, literacy should be increased. Legal literacy is a proper understanding of the right. In order to increase legal literacy in students, it is necessary to establish the following works. First, students will be able to increase their level of knowledge with their participation in various fields of Education. They are also aware of the sciences that provide legal knowledge along with knowledge in various fields of science.

In conclusion, it is important to regularly enrich the legal culture, to carry out consistent legal work. We aim to further improve our country from the legal point of view and take its place in the ranks of developed countries, for this purpose, each of us should take an active part in the implementation of measures aimed at the regular enrichment of legal culture. The future of our country is in the hands of youth. We believe that young people will make their contribution to the formation of the constitutional legal framework of our all-round developing legal democratic state.

REFERENCES

1. Tuychieva X. What? Some issues of improving legal education-training. TDPO. Collection of scientific works. - Tashkent: 1998. 61-67 B.
2. 1 AZN / PIN Recovery Literature is a factor of spirituality and independent thought formation. Tashkent: publishing house of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2009. 368 b. 12-13 bet.
3. Shorakhmetov Sh. Civil Procedure Law of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent: Justice. 2001. - 339 B.
4. Boris DeWiel. A Conceptual History of Civil Society: From Greek Beginnings to the End of Marx. Imperfect Law. Val. 6, 1997, pp. 3-42
5. Edwards, Michael. Civil Society. Cambridge, England: Polity Press, 2004. the p.6.

Qoraxonova Mashhura Karimovna, Axmedova Nigora Baxtiyorovna
Qashqadaryo viloyati 2-sonli ko'p tarmoqli
Iqtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari
(Qashqadaryo, Uzbekistan)

RIVOJLANISHDA NUQSONI BOR BO'LGAN BOLALAR KORREKSION ISHLARNI OLIB
BORISH

Annotatsiya. Maqolada rivojlanishda nuqsoni bor bo'lgan bolalar korreksion ishlarni olib borish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: korreksiya, jismoniy rivojlanish, kompensatsiya, rivojlanishda nuqsoni bor, jismoniy adaptatsiya, anomal o'quvchilar, psixofiziologik rivojlanish.

Korreksiya (*yunoncha - tuzatish*) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi. Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion-tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'satmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar)ni tashkil etish zarur bo'ladi.

Kompensatsiya (*yunoncha "compensatio" – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish*) organizmni buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyasini o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

Ijtimoiy rehabilitatsiya (*yunoncha "rehabilitas"-layoqati, qobiliyatini tiklash*) tibbiy pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazaryasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Rehabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Rehabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funksiyalarning o'rnini to'ldiriladi. Rehabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Ijtimoiy adaptatsiya (*yunoncha "adapto" - moslashish*) – anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlari tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni

bajarishga ularning layoqati yetmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratadi.

Oilaviy tarbiya reabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Anomal bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarining asosiy yo'nalishlari.

Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

5. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

6. Bolalarni reabilitatsiya va himoya qilish markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

7. Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'quvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasi yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotishyoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuztishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5270/0348-son 04.12.2017 y.
2. "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni – T.: "O'zbekiston" 2008.
3. "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni – T.: "O'zbekiston" 2008.
4. V.S. Raxmanova. O'g'ir va o'ta o'g'ir ko'p nuqsonli bolalarning rivojlanish xususiyatlari. / Bola va zamon jurnali 2012, №4, 31-34 b.

**Qo'shnazarova Mehribon,
Otaboyev Akbar
UrDU magistr
(Urgench, Uzbekistan)**

KELISHIK QO'SHIMCHALARINING USLUBIYATINI FANLARARO BOG'LAB O'RGANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili darslarini tabiat, geografiya, tarix, etnografiya, matematika, chizmachilik, adabiyot kabi boshqa fanlar bilan bog'lab o'tishning o'quvchilar tafakkurini, dunyoqarashini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *kelishiklar, O'zbek tiliga Davlat maqomi berilishining tarixi, o'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Bobur kabi buyuk siymolarimizning umrboqiy meroslari.*

O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi faqat o'zbeklar uchungina emas, balki Respublikamizda yashayotgan barcha elat vakillari uchun ham katta ahamiyatga ega. Agar Davlat tili haqidagi Qonun bandlarini o'zga millat va elat vakillari ongiga singdira olmasak, o'zbek tilining millatlaro muomala til mavqeyiga ko'tarilishi qiyin. Mustaqillik sharofati bilan biz jahon hamjamiyatiga a'zo bo'ldik. Jahonda millatlararo muomala vositasi ingliz tilidir. Mamlakatimizga turli maqsadlar bilan kirib kelayotgan xorijiy davlat fuqarolari tobora ko'paymoqda. Bu esa suni ko'rsatadiki, ingliz tili muomala jarayonida asosiy mavqe qozonib, millatlararo muomala vositasiga aylanishi ehtimolidan holi emas. Biz, yoshlar, ingliz, fransuz va yana juda ko'p chet tillarini bilishimiz kerak. Biroq inson ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida yig'laydi. Shunday ekan, odam o'z ona tilini sevishi, qadriga yetishi kerak. Sevimli adibimiz O'. Hoshimov ona tiliga bo'lgan mehr –muhabbatini shunday deb ta'riflagan edi: "O'z onasini sevmagan odam qo'shni kampirni yaxshi ko'raman desa, ishonmayman. O'z ona tilini, madaniyatini hurmat qilaman desa ishonmayman. Onaday aziz bo'lgani uchun tilimizni ona tilim deymiz".

**Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,
She'r yozdim – u, bo'lak ishni qotirmadim,
Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,
Bir eslasam, eziladi bag'ri – dilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.**

O'zbek tili Davlat tili maqomida mustahkam turishi uchun ham jahon xalqlari ichida mustahkam o'zin egallashi lozim. Buning uchun, avvalo, davlat tili siyosatini "kelajagi buyuk davlat" nuqtayi nazarini anglab yetishimiz zarur. O'zbek tili Davlat tili maqomida ustuvor turishi uchun uni jahon xalqlariga tanitish lozim, jahon xalqlari ham uni tan olishi muhimdir. Hozirgacha xorijdan kelgan mutaxassislar O'zbekistonni, asosan, rus tili orqali kashf etmoqda. Xorijdan kelgan mehmonlar O'zbekistonni o'zbek tili orqali tanishi, o'zbek tilini o'rganib ketishi yoki kelib o'rganishi bizning davlat siyosatimizga bog'liq. Jahon mamlakatlarida ona tilimizni xorijiy til sifatida o'qitilishiga endilikda davlat miqyosida alohida e'tibor bermog'imiz lozim. Bu ulkan yo'nalishning tizimi, dasturlari, qo'llanmalari, tegishli lug'atlari ishlab chiqilishi hozirgi dolzarb vositalardir. Ona tilimizning jahon mamlakatlarida o'qitilishi jahonning mamlakatimizga

e'tiborini kuchaytiradi va ayni paytda Vatanimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeyini oshiradi. Inshoolloh, shunday bo'lajak.

Ona tilimizning bebaho boyliklarini boshqa fanlar bilan bog'lab o'rgatishga bag'ishlangan darsimni havola qilaman.

Ustozlarni eshikning ikki tomonida turib qo'llariga gullar berib kutib olamiz (4 xil turdagi gullar). Mehmonlar istagan joylariga o'tirib olishadi.

1-b: Assalom, turkiy zabon,

Dilga chin ruh beribsiz.

Assalom, aziz mehmon,

Vohaga xush kelibsiz.

2-b: Qutlug' bo'lsin anjuman,

Til bilib el bilibsiz.

Xorazmday gul chaman,

Vohaga xush kelibsiz.

1-b: Aziz ustozlar, munis muallimlar!

Anjuman sabab siz bilan go'zal Xorazm vohasida diydorlashuv muborak!

2-b: Qadim va navqiron allomalar yurti bo'lgan, Kohna Xiva qal'asini o'z bag'riga jo qilgan Xorazm san'atkorlar yurtiga ilk bora nasib etgan tashrifingiz muborak!

1-b: Gul jannatdin hadya bir ne'mat erur,

Guldin kishilar yuziga yog'ilur nur.

Ammo bilmam gulfurush gulini sotib,

Puliga yaxshiroq ne ola bilur?

(K. Mirvaziy)

2-b: Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar,

Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.

1-b: Tabiat xasis emas, u tikandan gul, zahardan bol yarataveradi. Gullar – go'zallik malikasi. Gul ko'zlarga quvonch, dillarga orom bag'ishlaydi. Bilasizmi, gullar nima tanlamaydi?

2-b: Gullar yurt, elat, millat, til tanlamaydi. Lekin ular nima tanlaydi?

1-b: Gullar joy tanlaydi. Gul sevgi, ishq, muhabbat ramzidir. Shuning uchun ham qadim-qadimdan oshiq o'z ma'shuqasiga bo'lgan muhabbatini gul bilan izhor etgan. Gullar poklik, tinchlik, totuvlik, do'stlik, diydorlashuv ramzidir. Shuning uchun biz bugungi tanishuv, diydorlashuv ramzi sifatida gulni tanladik.

2-b: Qalbi quyosh, mehribon ustozlar! Tanishuv ko'ngillarni yana-da yaqinroq bog'laydi. Keling, bir-birimiz bilan yaqindan tanishib olsak.

1-b: Bir turdagi gul egalari bir guruh bo'lib bir stol atrofidan joy oladilar.

2-b: O'z qo'lingizdagi gulni guldonga solishdan oldin o'zingizning ism va sharifingiz, manzilgohingiz bilan tanishtirsangiz. Qo'lingizdagi gul haqida qanaqa she'r, qo'shiq yoki gullarning tabobatdagi xosiyati, o'rni haqida bilgan bilimlaringizni namoyish qilsangiz, biz bilan o'rtoqlashsangiz, marhamat.

1-b: 1-stolga Chinnigul egalari o'tiradilar. 2-stolga Lola gul egalari o'tiradilar.

2-b: 3-stolga Kala gul egalari, 4-stolga Atirgul egalari o'tiradilar (Gul haqida ma'lumot beradilar).

1-b: Har millatning o`z sevgan guli bo`lar ekan. O`zbeklar atirgulni, arablar nilufar gulini, yaponlar xrizantemani yaxshi ko`rishar ekan.

2-b: Gullarning hayotimizdagi o`rni juda katta. Gullardan sovun, atir, dori, efir yog`i olinadi.

1-b: Tabobatda roza guli dizenteriya, ya`ni ich ketishiga davo ekan.

2-b: Mana, ustozlar, ona tili fanidan biz botanika, biologiya, tabobat olami bilan ham bog`lanib bilimimizni yana-da chuqurlashtirdik.

1-b: Aytilmagan bir qo`shiqsan,
Jayxundirsan, Sayxundirsan.
Sen-da Sug`dsan, sen-da Shoshsan,
Ko`hna Turon-Ona tilim.

2-b: Jaloliddin Manguberdi,
“Yurtim” dedi, “tilim” dedi.
Chingizxon ham ming havasda:
“Shunday bo`lsa o`g`lim”, dedi!
Sug`d yozuvi, o`z yozuvim,
Turkiy tilim, o`zbek tilim.

1-b: Tarixga “Kompyuter asri” nomi bilan kirgan ushbu asr nafaqat bizning O`zbekistonda, balki butun jahonda o`chmas iz qoldiradi.

2-b: Keling, texnika faniga murojaat qilib, Ona tilimizning o`tmishiga bir nazar tashlasak... O`zbek tilining mavqeyini ko`tarish ajdodlarimizdan bizga merosdir:

- 1277- yil elxoniyalar davrida;

- XV asrda Navoiy taklifi bilan Husayn Boyqaro davrida;

- 1989- yil 21 -oktabrda Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan o`zbek tiliga Davlat maqomi berildi.

1-b: O`zbek tili quyidagi taraqqiyot bosqichlarini o`z boshidan kechirdi:

1. Qadimgi turkiy til: miloddan oldingi yillardan X asrgacha.

2. Eski turkiy adabiy tili: XI – XIV asrlar.

3. Eski o`zbek adabiy tili: XV- XIX asrlar.

4. Hozirgi o`zbek adabiy tili: XX asrdan boshlab hozirgacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi.

Til-millat belsidir. O`zbek tili borligi uchun millatimiz o`zbek millati, Vatanimiz O`zbekiston deya ataladi:

Tug`ilgan joy-menga Vatan, Ona tilim jonimdir,

Til va Yurtdan ayrilsam gar, shu kun o`lgan onimdir.

1-b: Bugun bizning yig`ilishimizdan maqsad “Ona tili darslarini fanlararo bog`lab o`rganish” mavzusini muhokama qilish ekan, siz bu muammoni qay usullar orqali yechmoqdasiz?

2-b: Biz har bir guruhga marker, plakatlar beramiz. Shu muammo va qo`shimcha beriladigan muammoga har bir guruh ma`lum vaqt ichida bahslashib, javob topib yozma javoblarini himoya qilishlari kerak.

Izoh: Har bir guruhga asosiy va qo'shimcha muammo yozilgan tarqatmalar beriladi. Tayyorlanish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.

1-guruh: 1. Ona tili darslarini fanlararo bog'lab o'rganish, sizningcha, qay usullarda olib borilgani ma'qul? 2. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatiga qanday usullar orqali erishmoqdasiz?

2-guruh: 1. Ona tili darslarini fanlararo bog'lab o'rganish, sizningcha, qay usullarda o'quvchilarga yetkazilgani ma'qul?

2. O'quvchilarning tafakkurini, shaxsiy fikrlash qobiliyatini o'stirishda qanday usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir?

3-guruh: 1. Ona tili darslarini fanlararo bog'lab o'rganish, sizningcha, qay usullarda olib borilgani ma'qul?

2. O'quvchilarning ifodali o'qish mahoratini qaysi usullardan foydalangan holda oshirmoqdasiz?

4-guruh: 1. Ona tili darslarini fanlararo bog'lab o'rganish, sizningcha, qay usullarda olib borilgani ma'qul?

2. O'quvchilar ongiga milliy qadriyat, ajdodlarimizga bo'lgan hurmatni singdirish muammosini qaysi usullardan foydalanib yechish va maqsadga erishish mumkin?

Izoh: Guruhlar o'z muammolarini ma'lum vaqt ichida yechadilar, doskaga o'z plakatlarini ilib qo'yib, o'z fikrlarini o'rtoqlashadilar. Ma'lum xulosaga keladilar.

1-b: Biz siz bilan "Kelishik qo'shimchalari uslubiyati" mavzusini fanlararo bog'lab o'rganamiz.

REJA:

1-b: Kelishik qo'shimchalari bilan tanishish. (Bu topshiriq fikrni davom ettirish usuli orqali olib boriladi)

2. Kichik guruhlar bilan ishlash: videofilm asosida kinossenariy yaratish.

Juda qadim zamonda, O'zbekiston tomonida,

6 ta zo'r pahlavon yashar ekan yonma-yon.

Ot va otni bog'lashda, ot va fe'lni bog'lashda,

Ular jon kuydirishar, tinmay zahmat chekishar.

Qarashlilik, yo'nalishni, harakat o'tganlikni,

O'rin-payt, qiyoslashni, butunning bir qismini,

Bildirar, uqtirishar, tinmay xizmat qilishar.

1-topshiriq:

Kelishik qo'shimchalari bilan quyidagi usulda tanishamiz:

1-guruh: Berilgan she'rda qaysi kelishiklar borligi, ularning qo'llanishini aniqlaydilar.

2-guruh: She'rning nasriy mazmunini ilmiylik asosida izohlaydilar.

3-guruh: She'r mazmunini rus, ingliz, nemis, franstuz, turkman tiliga tarjima qilish mashqi beriladi...

4-guruh: Shu she'rdagi tarixiy shaxsni izohlash mashqi topshiriladi.

Izoh: Ona tili darsi chet tillari va tarix fani bilan bog'lanadi.

Ushbu topshiriq quyidagi she'r asosida bajartiriladi:

Temurxon naslidin Sulton Ulug'bek,

Ki olam ko'rmadi, Sulton aningdek.

Bilib bu nav ilmi-osmoniy,
Ki andin yozdi "Ziji Ko`ragoniy".
Qiyomatda dekinchi ahli ayyom,
Yozurlar oning ahkomidin ahkom.

Izoh: Har bir guruhga kelishiklar mavzusida muammoli savollar berib boriladi. 1) Qaysi kelishiklar she'riyatda omonim shaklda uchraydi? 2) Qaysi kelishik boshq kelishiklar bilan sinonim bo'la olmaydi? 3) Qaysi kelishiklar kesim vazifasida kela olmaydi? 4) Tushum kelishigining qisqargan holatlari qanday shakllarda uchraydi? (-n, -i) 5) Qaysi kelishiklar ko'makchilar bilan sinonim bo'la oladi?

1-b: 2-topshiriq:

"Videofilm asosida kinossenariy yaratish" topshirig'ini bajaramiz. Kinossenariy yaratishdan oldin "Al -Xorazmiy" videofilmidan parcha tomosha qilasisiz.

Yo`qdan Beruniylar binolar qilgan,
Mashrabni mashhuri dunyolar qilgan,
Husaynni –Ibn Sinolar qilgan,
Abdullohning tilin burrolar qilgan,
Ilon o`ynatgandyek, so`z o`ynatgan kim?
Oddiy muallim-da, oddiy muallim.

2-b: Tuproqdek xokisor bezovta jonlar,

Ammo qanoatda tog`dek ulugvor,
Hatto Temurdayin Sohibqironlar
Pirim deb etagin o`pgan zotlar bor.
Qaysar Jahongirga yo`l ko`rsatgan kim?
Oddiy muallim-da, oddiy muallim.

1-b: Al-Xorazmiydek buyuk siymolar hayoti haqida videofilmning kinossenariysini yaratish topshirig'ini bajaramiz. Har bir guruh kinossenariy yaratish uchun quyidagi 4 ta topshiriqni bajarishi kerak:

1-topshiriq: Har guruh o`z chekiga tushgan alloma hayotidan ilmiy, mo`jizaviy esse yaratadi.

Izoh Guruhlar mavzulari:

1-guruh: Beruniy hayotidan geografiyaga oid esse yaratish.

2-guruh: Ibn Sino hayotidan tibbiyotga oid esse yaratish.

3-guruh: Bobur hayotidan tarixga oid esse yaratish

4-guruh: Forobiy hayotidan huquqqa oid esse yaratish.

Geografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, astronomiya fanlari mavzusida tuzilgan matnlar ona tili fani mavzusiga bog`lab sharhlanadi. Matnlardan kelishik qo`shimchalari toptirilib,uslubiyati sharhlanadi.

2-topshiriq: Shu allomalar qadamjoylari Yer yuzi xaritasidan oyoq bilan yurib borib toptiriladi. Buning uchun qo`lda yasalgan yer yuzi xaritasi 5 metrli ochiq maydonga joylashtiriladi. Har bir allomaning qadamjoylari 4 xil rangdagi iplar bilan belgilangan holatda toptiriladi va ularning ona tili taraqqiyotiga qo`shgan hissalarini, ona tilining sofligini saqlab qolishdagi sa'y-harakatlari eslatiladi. Har bir topshiriqda kelishik qo`shimchalarning uslubiy xususiyatlari so`rab boriladi.

Izoh:

I. Beruniy qadamjoylari:

1. Urganch 2. Eron: Ray, Bog'dod. 3. Hindiston: Peshovar, Jaylam, Lohur, Mo'lton. 4. Afg'oniston: Balx, Jurjon, Gurgon, G'azna.

II. Ibn Sino qadamjoylari:

1. Buxoro: Afshona qishlog'i. 2. Afg'oniston: Obivard, Qazvin. 3. Eron: Ray, Gurgon, Isfahon, Hamadon

III. Bobur qadamjoylari:

1. Andijon. 2. O'sh. 3. Axsikent. 4. Marg'ilon. 5. Toshkent. 6. Ohangaron. 7. O'ratepa. 8. Samarqand. 9. Qarshi. 10. Afg'oniston: Qobul, Qandahor. 11. Hindiston: Dehli, Agra.

IV. Forobiy qadamjoylari: 1. Sirdaryo: Forod qishlog'i. 2. Toshkent. 3. Samarqand. 4. Buxoro. 5. Bog'dod. 6. Damashq. 7. Xalad. 8. Misr.

Izoh: Bobur ta'sirida Hindistonga sabzi, xurmo so'zlari o'tganligi, kursi so'zining hind va o'zbek tillarida bir xil ishlatilishi eslatiladi.

3-topshiriq: allomalar yaratgan badiiy asarlar xronologik jadvalini tuzish va tuzgan gaplardan kelishik qo'shimchalarini topish topshiriladi.

4-topshiriq: Allomalar haqida she'r aytib, she'rdan kelishiklar uslubiyati toptiriladi.

Izoh: Guruhlarga ish davomida "Kelishiklarning uslubiyati" mavzusida savollar berib boriladi:

1-savol: "Qaratqich kelishigi qaysi kelishik bilan sinonim bo'la olmaydi?"

2-savol: "Tushum kelishigi qanday holatlarda belgili qo'llanadi?"

3-savol: "Qaratqich kelishigi qanday holatlarga belgisiz qo'llanadi?"

4-savol: "Qaysi kelishik qiyos ma'nosini beradi?"

XULOSA: Guruhlarga o'z gullarining shaklida qirqilgan rangli qog'ozlar beriladi. Ular shu qog'ozlarga o'z taassurotlarini, ezgu tilaklarini va manzilgohlarini yozadilar, shu gulning konturi chizilgan plakatga yopishtiriladi. Bu esa do'stona xayrlashuv belgisi hisoblanadi.

Tan olish kerakki, bugungi tezkor asrda millatning dunyoga tanilishi, nufuzi ortishi bevosita uning sport, san'at va tabiiyki, ona tiliga bo'lgan munosabati bilan ham belgilanmoqda. Modomiki, biz O'zbekistonimizni olamga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi bo'lsak, Qonun bilan shahodatlanib berilgan tilimizning – "Qoshg'ariydan qolgan til sadolari"ning bemsil imkoniyatlari, go'zalliklari, betakror ma'no tovlanishlari mohiyatini teran idrok etishimiz, qadriga yetishimiz lozim.

Xamroyeva Dilafro'z Safarovna
Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 3-MTT direktori,
Qurbonova Sevara Uloshevna
Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 3-MTT tarbiyachisi
(G'uzor, Uzbekistan)

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA DIDAKTIK O'YINLARNING BOLA PSIXIKASIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallashi, u bola hayotining uzviy qismi ekanligi, maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlarning ahamiyati, bola psixikasini o'rganish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlar bolalarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi, didaktik o'yinlarning qo'llanilish tasnifi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlarni tashkillash jarayonida musiqaning ham o'rnini va uning bola psixikasiga ta'siri haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim tashkiloti, bola psixikasi, didaktik o'yinlar, musiqa, "Ishoralor" o'yini.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti - o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

O'yin - bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida didaktik o'yinlarning bola psixikasiga ta'sirini tahlil qilishdan avval, bola psixikasi avval qanday o'rganilishiga e'tiborni qaratsak.

Bola psixikasini o'rganishda tadqiqotchi bir qator prinsiplar – qoidalarga tayanishi, ularga rioya etishi lozim bo'ladi. Bu prinsiplar quyidagilardan iborat:

1. Obyektivlik prinsipi - tadqiqotchidan ma'lumotlar bilan ularning talqinini aralashtirib yubormaslikni talab qiladi.

2. Sababiylik prinsipi - bola shaxsi va ongida yangi sifatning hosil bo'lishini ta'minlovchi barcha shart-sharoit va omillarni imkon qadar o'rganishni talab qiladi.

Misol uchun maktabga tayyorgarlik ko'rayotgan bolalarning matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish bolalar zehni o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlar jarayonida bolalar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his - tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlar bolalarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bolalarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar 2 xil tasnifga egadir. Mazmuniga ko'ra:

1. Tinch o'yinlar.
2. Harakatli o'yinlar.
3. Aralash turdagi.

Amalga oshirish shakliga ko'ra:

1. Musobaqa o'yinlar
2. Sahnali o'yinlar

Didaktik o'yinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi:

1. O'yinning vazifasi.
2. O'yinning harakati.
3. O'yinning qoidasi.
4. O'yinning yakuni.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin bolalarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini tarbiyachi tomonidan tushuntiriladi. Bolalar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar.

Masalan, "Ishoralar" o'yini.

O'yinning maqsadi. Bir amalli masalalarni og'zaki yechish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'yin jihozi: "-", "+", "=" belgilari.

O'yinning borishi. Tarbiyachi masalani o'qiydi, bolalar esa masalani qaysi amal bilan yechish kerak bo'lsa o'sha "ishora"ni ko'rsatadilar.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlarni tashkillash jarayonida musiqaning ham o'rnini kattadir va u bola psixikasiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, uning fikrlarini bir me'yorga soladi, estetikasini va hissiyotlarini rivojlantiradi, uni sokin tuyg'ular olamiga olib ketadi.

Demak, musiqa san'ati va ta'lim-tarbiyasi boladagi insoniy fazilatlarini rivojlantirib, ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-e'tiqodini, irodasini mustahkamlaydigan, ijodini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch – ma'naviyatning yuksalishini ta'minlaydi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqaviy idrokni o'stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy boy, ma'naviy va qat'iy ahloqiy sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotida didaktik o'yinlar, ularning samarali tashkil etilishi albatta, bolalar psixologiyasiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eng asosiysi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi, dunyoqarashlarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y.
2. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston 2006
3. Qodirov R. G'. "Musiqa psixologiyasi" T: Musiqa. 2005- yil
4. E.Umarov. Estetika T.: "O'zbekiston", 1995y
5. <https://n.ziyouz.com/>
6. <https://kopilkaurokov.ru/>
7. <https://hozir.org/>

Расулова Зилола Дурдимуратовна
Бухарский государственный университет
(Бухара, Узбекистан)

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБУЧЕНИЯ ПО ПРОГРАММИРОВАНИЮ В ПРАКТИЧЕСКИХ УРОКАХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В работе разработана методика использования программных средств обучения, направленных на виртуализацию образовательного процесса высшего образования. Студентам предлагается использовать графические программы, такие как NanoCAD, Discreet 3DS Max, Animation Master, направленные на развитие навыков шитья и дизайна.

Ключевые слова: программные средства обучения, программы компьютерной графики, виртуальная практика, творческий подход, инновационная деятельность, дизайн, моделирование.

ВВЕДЕНИЕ. Сегодня цифровизация образования - это организация учебного процесса в виде виртуальных (наглядных) уроков с использованием компьютерных программ, широкое осмысление содержания науки в сознании учащихся, углубление демократических изменений в реализации концепция гражданского общества, творческого мышления, инновационной науки и технологий - Потребность в обучении персонала растет день ото дня. Инновационные приемы и технологии - это педагогический процесс, а также нововведения, изменения творческой деятельности учителя и ученика, реализация которых в основном заключается в использовании программных средств обучения [1].

В реализации вышеперечисленных стратегических задач важную роль играет виртуальная (визуальная) организация образовательных процессов на основе современных технологий по направлению ВУЗ 5112100-Технологическое образование. Целью является изучение текущей ситуации, повышение инновационной активности студентов с использованием компьютерных программ при решении задач материально-технической базы учебных мастерских, учебных пособий.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ. Учет психологических и физиологических особенностей студентов при разработке программных средств обучения занимает особое место. Способы разработки и внедрения усовершенствованных методов использования программных средств обучения для проверки и развития практических навыков на основе инновационных знаний в реальной практике можно увидеть на примере предмета «Мастерская технологического образования» в общенаучном блоке учебной программы. 5112100-Технологическое образование.

Будут разработаны методические указания к практической работе, которые будут включать: цель работы, необходимые теоретические сведения о работе, требования к результатам, задания. Студенты используют методические рекомендации и компьютерные программы для проведения практических работ по разработке дизайнерских чертежей деталей одежды.

Компьютерное программное обеспечение играет важную роль в современном дизайне, поскольку это одна из самых актуальных задач с точки зрения развития инновационных технологий. Компьютерные программы основаны на самостоятельном направлении и визуальной обработке информации (компьютерная графика, WEB-страницы) [2].

Методика использования программных средств обучения в практических занятиях

План занятия практическое занятие по предмету «Технологический образовательный практикум»

Тема: Подготовка образца женского национального платья.	Развивать умение выполнять практическую работу на основе компьютерных программ.
Отведенное время - 2 часа	Количество студентов - 16
Форма обучения	Практическое занятие
План практических занятий:	
<ol style="list-style-type: none"> 1. Отрежьте образцы в соответствии с направлением нити, оставив необходимые стежки. 2. Подготовка переда, спинки кокеток, рукавов, воротников, юбок переда и спинки. 3. Сшейте все детали вместе. 	
<p>Цель обучения: Виртуальная организация обучения на основе программного электронного учебного пособия по теме «Технология учебной мастерской (услуги)». Развивайте творческие знания учащихся с помощью программных инструментов. Организация анимационных выставок технологических процессов, формирование у студентов практических навыков, формирование у них навыков самостоятельной и творческой работы посредством реальных выставок.</p>	
<p>Обязанности учителя:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Дать теоретические сведения по дизайну женского национального платья, способам пошива и пошива деталей. 2. Анимация, виртуальная организация таких процессов, как подготовка передних и задних кокеток, обработка воротников, раскрой и обработка рукавов, обработка юбок, стыковка всех деталей. 3. Анализ результатов виртуальных экспериментов. 	<p>Результаты обучения:</p> <p>Студенты должны знать</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Иметь теоретические и практические знания по теме. 2. Женщины смогут увидеть анимационный реализм компьютерного моделирования на основе компьютерных программ и приобретут навыки самостоятельной практической работы. 3. Самостоятельно выполнять практическую работу с использованием виртуальных процессов, закреплять свои знания с помощью запрограммированных нестандартных тестов, контролировать и анализировать.
Методы и технологии обучения	Метод Creative flight (творческий полет). Коллективное, индивидуальное.
Форма организации обучения	
Дидактические инструменты	
<p>Электронное руководство по программированию, комплект электронного обучения (практические занятия, презентации, видео, анимация, нестандартные запрограммированные тесты, ключевые слова и фразы), дидактические раздаточные материалы, учебники</p>	

Условия организации обучения	Демонстрируемое, программируемое учебно-методическое оборудование, оснащенное техническими средствами.
Контроль и оценка	Самостоятельная работа, вопрос-ответ, тест.

Технологическая карта занятия

Этапы и сроки работы	Содержание деятельности	
	Учитель	Студент
Шаг 1. (Фаза испытания) (20 минут)	1.1. Описывает содержание, план, цель и ожидаемые результаты практического обучения.	1.1. Слушает, записывает, смотрит, выполняет
Шаг 2. (Фаза понимания) (40 минут)	2.1. Проверяет выполненную работу самостоятельно с помощью технологии Three-stage training (Трёх-ступенчатое обучение) 2.2. Практические занятия проводятся с использованием программного обеспечения. 2.3. Анализируются результаты ассимиляции.	2.1. Они последовательно выполняют практическую работу. 2.2. Проверяют свою работу самостоятельно через программу. Анализируйте результаты и делайте выводы.
Шаг 3. (Фаза обдумывания) (20 минут)	3.1. Новая тема усилена с помощью метода Creative flight (творческий полет)	3.1. Обогащает и дополняет ваше воображение. Они выполняют задания самостоятельно и оцениваются.

Курс практических занятий

Цель работы: Развивать у учащихся творческие знания в изготовлении выкройки национальной одежды с использованием программных учебных пособий.



Практические навыки, приобретенные в процессе обучения:





- Самостоятельное рисование эскиза рубашки с помощью программы;
- изготовление передних и задних кокеток;
- умеют сделать воротник;
- прикрепить воротник к кокетке;
- подготовка большей части;
- обработка юбки;
- Собирать все детали по программе.





Креативные знания развиваются на основе программирования при выполнении технологических операций:

- градация измерений в зарисовке (снятие разных мерок);
- моделирование деталей рубашек разными методами;
- Вышитая техника шитья.

Технологическая карта дизайна национальной рубашки на основе программных средств обучения

<p>Порядок этапов практической деятельности</p>	<p>Необходимое оборудование, инструменты и приспособления</p>	<p>Образцы из чертежного практикума</p>	<p>Порядок выполнения технологических операций на базе программного обеспечения</p>
<p>1</p>	<p>2</p>	<p>3</p>	<p>4</p>
<p>Технология изготовления шаблона рубашки</p>			
<p>Нарисуйте эскиз кокетки спереди и сзади, спереди и сзади рубашки по стандартным меркам.</p>	<p>Линейка, см, мм бумага, карандаш</p>		<p>Студенты самостоятельно выполняют практическую работу по программе. Рисуют конструктивный чертеж рубашки на стандартной бумаге на бумаге мм.</p>
<p>Большая часть работы - это разработка эскиза и подготовка шаблона.</p>	<p>Линейка, см, мм бумага, карандаш</p>		<p>мм на бумаге нарисуйте рисунок большей части рубашки отдельно по меркам</p>

Технология обработки кокетки			
Пошив и пошив кокетки по готовой выкройке.	Настольный, утюг, ножницы, универсальный станок		Правильный и наоборот материал определяется и гладится. По выкройке вырезают переднюю и заднюю кокетки и соединяют погоны.
Технология обработки воротника			
Пошив и пошив воротника по выкройке.	Настольный, утюг, ножницы, универсальный станок		Основываясь на виртуальном процессе, нижняя обратная часть воротника соединяется с верхней возвратной частью обратным стежком.
Обработка углов хомута	Рабочий стол, ножницы		Пришитый воротник срезается от углов, не доходя до пришитого шва 0,1-0,2 см.
Определение правильной и наоборот обработки швов воротника	Рабочий стол, утюг		Сшитый воротник закатываем вправо, гладим и готовим.

<p>Прикрепляем воротник к кокетке</p>	<p>Рабочий стол, ножницы, универсальный станок, утюг</p>		<p>Процесс крепления готового воротника к кокетке выполняется.</p>
<p>Технология крепления кокетки к сумке</p>			
<p>Обработка сумки и кокетки на рубашке</p>	<p>Рабочий стол, ножницы, универсальный станок, утюг</p>		<p>К сумке рубашки прикрепляется готовая кокетка.</p>
<p>Обработка жестяной детали</p>	<p>Рабочий стол, ножницы, универсальный станок, утюг</p>		<p>Юбка пошита обратной строчкой.</p>
<p>Обработка большей части</p>	<p>Рабочий стол, ножницы, универсальный станок, утюг</p>		<p>По шаблону большая часть детали вырезается и моделируется прямым стежком, основная часть сшивается соединительным стежком.</p>

<p>Коллекция деталей национальных рубашек</p>	<p>Рабочий стол, ножницы, универсальный станок, утюг</p>		<p>Готовые детали соединяются последовательно, излишки пряжи обрезаются, проглаживаются и выкройка рубашки готова.</p>
---	--	---	--

